

KIRISH

*“Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi,
azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi
ming- minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidur”*

Amir Temur

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Har qanday mamlakat taraqqiyoti uning iqtisodiy ko’rsatkichlari bilan belgilanadi. Shu sababli davlatlar yuksak taraqqiyotga erishish uchun tadbirkorlik faoliyatiga biznesga alohida e’tibor qaratishadi. Yurtimizda ham amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shunday ekan, tadbirkorlarga berilayotgan bunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va yoshlarda tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirib ularni tadbirkorlikka va biznesga jalb qilish, olib borilayotgan islohotlar yaratib beradigan imkoniyatlardan xabardor qilib, tadbirkorlarni yanada qo’llab-quvvatlash va sohaga yangi kirib kelayotgan yosh mutaxassislarni turli bilim va ko’nikmalar bilan qurollantirish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadlari. Buxoro viloyatida yosh tadbirkorlarning muammolari hamda taklif - istaklarini o’rganish, bo’lajak tadbirkorlarni tadbirkorlikka o’rgatish tizmini takomillashtirish, ularda bilim, ko’nikmani shakllantirish borasidagi takliflar tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadlariga erishishi uchun quyidagi vazifalar ketma – ketligi belgilab olindi:

- Biznes va tadbirkorlikning jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni, mohiyati va asosiy vazifalarini o’rganish;
- O’zbekistonda biznes va tadbirkorlikning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish;
- Respublikamizda biznes va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash tizimining xususiyatlarini o’rganish;

- Buxoro iqtisodiyot va bank kollejida tadbirkorlik va biznes sohasi bo'yicha o'qitiladigan fanlar tahlili;
- Tadbirkorlik va biznesga oid falarni o'qitish uslubiyoti;
- Tadbirkorlikka tayyorlash tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini o'rganish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida kirish, 3 bobdan iborat asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat reja asosida ish olib borildi.

1-Bob “Biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri” deb nomlanib, 3 paragrafdan iborat. Unda biznes va tadbirkorlik faoliyati mohiyati, asosiy xususiyatlari va tamoyillari, O'zbekistonda biznes va tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyoti, biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va soha vakillarini tayyorlash bilan bo'g'liq masalalar bo'yicha batafsil ma'lumotlar, biznes va tadbirkorlikning yuzaga kelish tarixi, asosiy vazifalari, turlari, afzallik va kamchiliklari tavsiflab berilgan. Shuningdek, biznes va tadbirkorlikning O'zbekistonda rivojlanganlik darajasi, yurtimizda ushbu faoliyat bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf eticha yo'llari yoritib berilgan.

2- Bob “Iqtisodiy fanlar doirasida “Biznes va tadbirkorlik faoliyati” mavzusini o'qitish asoslari” deb nomlanib, u ham 3 paragrafdan tashkil topgan. Mazkur bobning birinchi paragrafida yoshlarda biznes va tadbirkorlik faoliyatiga oid tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, yoshlar bandligini ta'minlash, bu boradagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Ikkinchi paragrafida o'rta maxsus ta'lim muassasalarida biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan bo'g'liq fanlarni o'qitish amaliyotini tahlil qildik, bunda Buxoro iqtisodiyot va bank kollejida o'tilayotgan tadbirkorlik va biznes bilan bo'g'liq iqtisodiy fanlar bo'yicha tahlillar o'tkazdik.

Uchinchi paragrafida esa oliy ta'limda biznes va tadbirkorlik faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda iqtisodiy fanlarning tutgan o'rni tahlil qilib, atroflicha xulosalar qildik.

3- Bob “Biznes va tadbirkorlik faoliyati” mavzusini o’qitish amaliyotida pedagogik metodlardan foydalanish”,- deb nomlanib, ushbu bob 2 paragrafdan iboratdir.

Birinchi “Biznes va tadbirkorlik faoliyati” mavzusiga oid kollejdagi “Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari” fani bo’yicha texnologik xaritani kiritdik.

Ikkinchi paragrafda esa, “Biznes va tadbirkorlik faoliyati” mavzusini o’qitishda pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida va ulardan foydalanish bo’yicha takliflar keltirib o’tdik.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida biz yuqorida ko’rilgan masalalar yuzasidan umumiy to’xtamlar va muammolarni bartaraf etish borasida takliflar tizimini ishlab chiqdik. Shuningdek, izlanishlarimiz asosida tayyorlagan loyihamizni taklif etdik.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda rahbariy adabiyotlar, O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, prezident farmonlari, prezident asarlari, darsliklar, o’quv qo’llanmalar, vaqtli matbuot materiallari va internet saytlari bilan bir qatorda, statistik to’plamlar va Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlardan unumli foydalanishga harakat qildik.

I.BOB. BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY TARAQQIYOTGA TA’SIRI

1.1. Biznes va tadbirkorlik faoliyati mohiyati, asosiy xususiyatlari va tamoyillari

Hozirgi yuqori sur’atlarda taraqqiy etib borayotgan zamonda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va erkinlashtirish sharoitida biznes va tadbirkorlik faoliyatini xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me’yoriy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohatlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buning isboti o’laroq, 2017-yil 8-dekabrda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Konstitutsiyasining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, xususiy mulk daxlsizligini amalda ta’minlash bundan buyon ham davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolishini ta’kidlab o‘tgan edi. "Biz iqtisodiyotimizni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlarga keng yo‘l ochib berish siyosatini bundan keyin ham qat’iy davom ettiramiz. Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu sohani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uning oldida paydo bo‘ladigan to‘siqlarni butunlay olib tashlash masalasi davlat rahbari sifatida mening doimiy e’tiborim va nazoratimda bo‘ladi", — degan edi Mirziyoyev. Tadbirkorlar haqida gapirar ekan, o‘tmishda ajdodlarimiz ham tadbirkorlik bilan shug‘ullanganini, buni Buyuk Ipak Yo‘li misolida ham ko‘rish mumkinligini, umuman, tadbirkorlik o‘zbek xalqining qonida bor ekanligini ta’kidlar ekan, "Amaldorlarga tadbirkor ertaga hammangni boqadi, deb necha marotaba aytganman, tadbirkorni yo‘liga g‘ov bo‘lish, oyog‘iga kishan bo‘ladigan qonunlarni chiqarish kerak emas. Tadbirkor boy bo‘lsa, xalq ham, davlat ham boy bo‘ladi", — dedi Mirziyoyev.¹

Shu o‘rinda tadbirkorlik faoliyati va biznes tushunchalarining mohiyati haqida batafsil to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik. Xo‘sh tadbirkorlik nima degani,

¹"Mirziyoyev amaldorlarga: tadbirkor ertaga hammangni boqadi!" O‘zbekiston Konstitutsiyasining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqidan.<https://sputniknewsuz.com/politics/20171208>

“biznes” atamasi nimani anglatadi, ularning tub mohiyati nimalarni o‘z ichiga oladi? Ushbu savollarga batafsil javob berishga jazm etdik.

Iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R.Kontilon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit va J.B.Sey asarlarida amalga oshirila boshlandi. Biroq hozirga qadar jamoatchilik fikrida “tadbirkorlik” tushunchasining ko‘p ma‘noliligi saqlanib qolmoqda. Ilmiy adabiyotda ushbu tushuncha haqida ko‘pincha bu favqulodda xodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruhiy tavsiflari (turli-tuman qarashlar) to‘plashidan iborat har xil tasavvurlar mavjud. Xorijiy adabiyotlarda “biznes” ta‘rifini ko‘p turlari mavjuddir. Inson jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog‘liq bo‘lgan.²

Iqtisodchi olimlardan Richard Kantilon tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tadqiq etib, u “Tadbirkor havf-xatar ostida savdo faoliyatini yuritib o‘z korxonasiga ega bo‘lgan va raqobat asosida faoliyatini yurituvchi shaxsdir. Tadbirkorlik esa, foyda olish imkoniyatlari chegaralanmagan va bahosi aniq tovarlarning sotib olib, lekin sotish bahosi noaniq bo‘ladi, u tavakkalchi, taklifni tovarga moslovchi shaxs faoliyatidir...”³ - deb ta‘kidlagan. R.Kantilon tadbirkorlikni o‘ziga xos funksiya deb tushungan va foyda olishga qaratilgan tavakkalchilik bilan bog‘liq faoliyat deb talqin qilgan. Tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishida muhim o‘rinni M.Villyam ta‘limoti egallaydi. “Tadbirkor – bu tadbirkorlik faoliyatini yuritib unga mas‘ul bo‘lgan shaxs hisoblanadi. U shunday shaxski, korxonaga to‘liq egalik qiladi, ishni rejalashtiradi, nazorat qiladi va tashkil etadi”⁴. Shuningdek, tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga fransuz iqtisodchisi J.B.Sey ham o‘z hissasini qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. U tadbirkorning asosiy vazifasi ishlab chiqarish omillarini oqilona birlashtirish va kombinatsiyalashdan iborat, tadbirkor ishlab chiqarishi doirasida boshqa insonlar faoliyatini tashkil etadi, deb ta‘kidlab o‘tgan⁵. Sharq olimlari ham tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Tadbirkorlik masalalari ular

²Gulimbetov.A “Tadbirkorlikasoslari” fanidan ma‘ruza matni – Nukus 2011 yil 18-b.

³Kantilon R., Nedeo K., Link A. The Entrepreneur. H/Y. 2011. -51 p.

⁴Предпринимательство. Учебник. Под. РЕД. В.Я. Горфинкеля и Т.Б. Полякова. –М.: «Юнити», 2011.-581 с.

⁵William M. Pride Robert J .Hughes. Bizness Jannary 1, Izd.Cendade Learning, 2011. 118 p.

tomonidan o'sha davridayoq atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, muqaddas "Avesto" kitobida ham nafaqat tadbirkorlik bilan shug'ullanish, balki ko'zlangan maqsadga faoliyatning faol samarasi orqali erishish mumkinligi qayta-qayta ta'kidlangan⁶.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunida tadbirkorlik nazariyasing taraqqiyoti ifodalangan bo'lib, bu unda berilgan ta'rifning asosini tashkil etib, "Tadbirkorlik - tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad(foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir."⁷ – deb baholanadi.

Tadbirkor, tadbirkorlik haqida gap ketar ekan, beixtiyor uning egizagi biznes va biznesmen ham ko'z o'ngimizda gavdalanadi. "Tadbirkorlik" va "biznes" tushunchalari o'zaro yaqin bo'lib, amaliyotda ular bir-birini almashtirishlari mumkin. Ammo, "tadbirkor" va "biznesmen" tushunchalari iqtisodiy faoliyat sohalarda ko'rilayotganda ma'nodosh deb hisoblanmaydi. *Biznesmen*⁸-sarmoya egasi, mulkdor, mulkini ko'paytirishga intiluvchi shaxs.

Biznes bu - ruxsat etilgan, jamiyat a'zolariga foyda keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanib daromad topishdir. Biznes keng ma'noda qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir.

Biznesning maqsadi - odatda, foyda olish hamda uni barqaror holga keltirish, foydani muttasil oshirib borish va boyib ketish, foyda hisobiga sarmoyani ko'paytirishdir. Biznesmen maxsulotini sotishi natijasida daromad oladi. Bu daromaddan ishlab chiqarish xarajatlari chegirib tashlanadi va qolgan qismi foydani tashkil qiladi, bu jarayoni quyidagi (1.1 -rasm) uchburchakda ko'rishimiz mumkin.


Tadbirkorning maqsadi esa yangi fikr va g'oyalarni izlash, tahlil qilish, o'zining tashabbuskorlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o'z faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishdir. *Tadbirkor* yuridik shaxs bo'lish-

⁶Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar mahkam tarjimasi. -: «Sharq», 2001. 227 b.

⁷O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 2012. 2 maydagi O'RQ-328-son Qonuni.

⁸Gulimbetov.A "Tadbirkorlika soslari" fanidan ma'ruza matni – Nukus 2011 yil 17-b

bo'lmisligidan qat'iy nazar, doimo tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxsdir(yakka tadbirkor).



1.1–rasm. Biznes jarayoni.

Manba:Djon Berdjies va Den Shtaynxoff “ Kichik biznesni boshqarish asoslari” kitobi 2012 yil 30-b.

Bundan tashqari tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, umuayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir.

Tadbirkorlikning tashkiliy shakllari juda xilma-xil bo'lib, ularning hech biri muvaffaqiyatga oldindan kafolat bermaydi.

Tadbirkorlarga xos xususiyatlar quydagi 1.2 - rasmda klaster shaklida tavsiflangan.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risidagi qonuni»nin 5-moddasi⁹ga binoan tadbirkorlik faoliyatining quyidagi shakllari mavjuddir:

- yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati;
- xususiy tadbirkorlik faoliyati;
- aralash kompaniyalar;
- kooperativ tadbirkorlik;
- davlat tadbirkorligi;

⁹O'zbekistonning yangi qonunlari 16 –son T, “Adolat”,2000 – yil 427 –b.



1.2 - rasm. Tadbirkorlarga xos umumiy xususiyatlar.

Manba: "Tadbirkorlik va biznes asoslari" 2016-yil 15- b.

Yakka tadbirkorlik. Agar ishni bir shaxsning o'zi tashkil etib olib borsa, u yakka tadbirkor hisoblanadi va mulkka yolg'iz o'zi egalik qiladi, tushgan daromadni ham bir o'zi o'zlashtiradi. Yakka tadbirkorlar shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki oila a'zolarining mehnati asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy korxona egasi uning menedjeri hisoblanib, korxonaning barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Xo'jalik huquqi nuqtai-nazaridan yakka tartibdagi tadbirkorlik huquqiy shaxs hisoblanmaganligi uchun uning egasi cheklanmagan ma'suliyatga bo'ladi va faqat fuqarolardan olinadigan daromad solig'ini to'laydi. U odatda kichik magazin, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonlar, dehqon xo'jaliklari, shuningdek, huquqshunos, vrach, advokat kabi turli malakali mutaxassislar xizmati ko'rinishida tashkil qilingan yollanma mehnatga asoslanadi.

Yakka tadbirkorlikning afzallik va kamchiliklarini 1.1- jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik shakliga etik do'z, repetitor, tikuvchi, hunarmand usta kabilar misol bo'la oladi.

1.1 – jadval

Yakka tadbirkorlikning afzallik va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) tadbirkor o'z faoliyatini hech bir shartnomasiz, faqat o'z qaroriga binoan, o'z ixtiyori bilan boshlashi mumkin; 2) yakka tadbirkor hech bir yuqori kengashga bog'liq bo'lmagan holda qaror qabul qila oladi; 3) tadbirkor faqat o'z qaroriga javob beradi va shunga asoslanib ish tutadi; 4) tadbirkor korporatsiyalardagi kabi vaqti-vaqti bilan hech kimga hisobot bermaydi; 5) tadbirkor o'z faoliyatini xohishiga ko'ra istagan joyda amalga oshiradi	1) tadbirkor behisob shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi; 2) agar tadbirkorning ishi barbod bo'lsa, mol-mulkini butunlay yo'qotishi mumkin; 3) tadbirkor sherikchilikning qo'shimcha mablag'iga suyana olmaydi; 4) tadbirkor aksiya yoki boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarib sotish kabi moliyaviy usullardan foydalana olmaydi; 5) tadbirkorning faoliyati faqat o'ziga bog'liq bo'lib mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolsa, ishlari susayib cheklanib qoladi, vafot etsa, umuman to'xtaydi; 6) shundan kelib chiqib boshqa kompaniyalar u bilan iqtisodiy aloqani istamayroq amalga oshiradilar.

Manba:Sahar ijtimoiy online maktabi.26.11.2014

Xususiy tadbirkorlik. Xususiy tadbirkorlik alohida shaxs yoki korxona tomonidan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlikning bu shaklida mulk va ishlab chiqarish natijalari xususiy shaxslarga tegishli bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil qilish yollanma mehnatga asoslanadi.

Xususiy tadbirkorlikning afzallik va kamchiliklarini 1.2 – jadvalda ko'rishingiz mumkin.

Xususiy tadbirkorlikning afzallik va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) xususiy tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritishi mumkin. 2) soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qo'llaniladi. 3) to'la mustaqil harakatdagi erkinlik, tezkorlik va barcha foyda to'laqonli faqat mulkning egasiga kelib tushadi.	1) kreditlash imkoniyati cheklangan. 2) zaif moliyaviy poydevorga ega. 3) barcha xo'jalik faoliti uchun o'zining bor mol mulki bilan javobgar. 4) faoliyatini kengaytirish imkoniyatlari cheklangan.

Manba:Sahar ijtimoiy online maktabi.26.11.2014

Aralash korxonalar. Aralash korxonalar hissadorlik jamiyati va ma'suliyati cheklangan shirkatlar shaklida tashkil qilinadi va aksiyalari davlatga, xususiy omonatchilarga taalluqli bo'ladi. Mas'uliyati cheklangan shirkatlar ikki va undan ortiq kishining foyda olish maqsadida, kelishuv (shartnoma) asosida o'z mablag'larini birlashtirgan holdagi tadbirkorlik faoliyatidir.

Shirkat o'zi ishlab chiqqan nizom asosida faoliyat yuritadi. Uning ham afzallik va kamchilik tomonlari mavjud bo'lib, 1.3 – jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga “SharqKredit”, “Beeline”, “Ucell” va “Artfaminvest” kabi ma'suliyati cheklangan jamiyatlari misol bo'la oladi.

Aralash korxonaning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) shirkatlar moliyaviy jihatdan yakka egalik firmaga nisbatan ancha kuchli bo'ladi; 2) harakatdagi tezkorligi; 3) shirkat menejerlikda qo'shimcha imkoniyatiga ega, ya'ni a'zolari bir birini kamchiligini to'ldirgan holda birlashadilar.	1) shirkatning har bir a'zosi boshqa sherigining xatti harakatlari uchun javobgar bo'ladi; 2) sheriklar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik paydo bo'lishi mumkin; 3) agar shirkat omadsizlikka uchrasa va biron a'zosining mablag'i qarzni to'lashga yetmasa, boshqa a'zolari to'lashlari shart bo'ladi; 4) shirkat a'zolari shaxsiy jihatlari juda katta ahamiyatga egaligi

Manba:Sahar ijtimoiy online maktabi.26.11.2014

Jamoa(korporatsiya) shaklidagi shirkat. Bu shakldagi korporatsiyalar (ingliz tilida public company deyiladi) yakka shaxslar, muassasalar, tashkilotlar, korxonalar xohishlari va o'zaro kelishuvlari asosida biron maqsadni ko'zlab tuzilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Unda xo'jalik faoliyati asosan hissadorlarning aksiya yoki paychilik shaklidagi qo'shgan mablag'lari asosida tashkil etiladi.

Jamoa korporatsiyalariga "Apple", "Google" va "Microsoft" kabi korporatsiyalar misol bo'la oladi.

Korporatsiyaning afzalliklari:

- Muddatsiz ravishda faoliyat ko'rsata oladi;
- Korporatsiya singan taqdirda ham uni boshqaruvchilar o'z mol-mulkidan ajralib xonavayron bo'lmasligi mumkin.
- Bir vaqtda turli-tuman sohalarda baravar faoliyat yurita olishi mumkin.

Davlat ishlab chiqarish korxonalari. Bu korxonalarning ancha keng tarqalgan tashkiliy, huquqiy shakli bo'lib, ular alohidalashgan mol – mulkga ega bo'lib, xo'jalik faoliyati bilan birga davlat tomonidan belgilangan doirada boshqarish va tartibga solish vazifalarini ham bajaradi, ya'ni davlat korporatsiyalari o'zida tijorat korxonalari hamda davlat organlari belgilarini mujassamlashtiradi.

Tadbirkorlik hatti – harakatlari tufayli kimgadir moddiy yoki ma'naviy zarar yetgan bo'lsa, u buning uchun mulkiy javobgar hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkor o'z faoliyatida boshqa xo'jalik yurituvchi shaxs bilan shartnoma asosida munosabatga kirishadi. Tadbirkor shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda amaldagi qonun hujjatlariga va shartlariga muvofiq u mulkiy javobgar bo'ladi. Demak, tadbirkor boshqa subyektlarga zarar yetkazgan hisoblanadi.

Tadbirkor – ishlab chiqarishni tashkil etishni, xamda mahsulotni sotishni bilishi kerak. U bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan aniq sharoitlarni baholashni va to'g'ri yo'l tanlashni bilishi kerak. Har bir tadbirkor faqat o'z kuchiga, bilimiga va zakovatiga ishonishi va suyanishi lozim. Yuqoridagilardan

kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati va biznes haqida quyidagi qisqa xulosalarga keldik:


1.4-jadval

Tadbirkorlik faoliyati va biznesning o'ziga xosliklari

Tadbirkorlik faoliyati	Biznes
Tadbirkorlik - tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.	Biznes -bu ruxsat etilgan, jamiyat a'zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanib daromad topishdir. Biznes keng ma'noda qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir.
Tadbirkorning maqsadi – yangi fikr va g'oyalarni izlash, tahlil qilish, o'zining tashabbuskorlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o'z faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishdir.	Biznesning maqsadi -odatda, foyda olish va uni barqaror holga keltirish, foydani muttasil oshirib boorish va boyib ketish, foyda hisobiga sarmoyani ko'paytirishdir.
Tadbirkor -yuridik shaxs bo'lish bo'lmasligidan qat'iynazar, doimiy ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxsdir (yakkatadbirkor).	Biznesmen -sarmoya egasi, mulkdor, mulkini ko'paytirishga intiluvchi shaxs.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Albatta yuqoridagi jadvaldan tadbirkorlik va biznes tushunchalari bir xil ma'noga egadek ko'rinishi mumkin ammo, ular ma'nodosh emas. Oddiy qilib ularning farqini quyidagicha qisqacha ko'rsatish mumkin (1.3-rasm) :



1.3-rasm. Tadbirkorlik va biznesning farqi

Manba: "Sahar" ijtimoiy online maktabi dasturi material.

Biznesmen A (rasmda tarvuz keltirilgan) mahsulotni ustiga ma'lum X summa qo'shib sotadi.

Tadbirkor esa, A(rasmda tarvuz keltirilgan) mahsulotni oladi, uni ustida ishlaydi va tarkibida A bo'lgan B mahsulotni ishlab chiqaradi va qimmatroq summaga pullaydi.

Shunday qilib, tadbirkorlik har tomonlama faoliyat turi bo'lib, o'z ichiga yangi tovarlarni ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish, tovarlarni sotish uchun yangi bozorlarga kirib borish, iste'molchilar doirasini kengaytirish, yangi ishlab chiqarishga yangi resurslarni, mablag' bilan ta'minlash manbalari va shakllarini jalb qilishni, tashkiliy boshqaruv yangiliklarini o'tkazish, sherikchilik munosabatlarini, shu jumladan, xalqaro munosabatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

1.2. O'zbekistonda biznes va tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyoti


Mustaqillikning ilk yillaridanoq O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot va savdo-sotiqni erkinlashtirish, turli mulk shakllarini vujudga keltirish, raqobatni rivojlantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Shu sababdan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida biznes va tadbirkorlik faoliyati muhim rol o'ynashi e'tirof etilib, respublikada biznes va tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va yuksaltirish uchun zarur shart-sharoit yaratishga kirishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni bo'yicha 2017-yildagi “ Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili (I bosqich), 2018-yildagi “ Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili ” (II bosqich) va hozirgi 2019-yildagi “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” (III bosqich) Davlat dasturlari amalga oshirilmoqda ¹⁰ . Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sabab, mamlakatimizda biznes va tadbirkorlikning rivojida anchagina oldinga siljishlar ro'y berdi. Biz shu o'zgarishlarni Respublikamiz va Buxoro viloyatining statistik

¹⁰ Ўзбекистоннинг инвестиция сиёсати (Бухоро вилояти мисолида).Хасанова Гулрух Джуманазаровна. Журнал «Интернаука» № 9 (91), часть 2, март, 2019 г.

ko'rsatkichlariga tayangan holda tahlillar o'tkazib, o'zgarishlarning sabablarini o'rganishga e'tiborimizni qaratdik.

Dastlab, 2000-2017-yilgi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i mustaqilligimizning ilk yillarida ya'ni 1991-yilda 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000- yilda 31 foizni tashkil etib, 2010-yilda 52,5 foizga oshgan. 2017-yilga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,9 foizni tashkil etgan(2.1-rasm).



2.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi(foizda).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.1991-2017 yillarda YaIM ko'rsatkichlari.

Quyida 2.1-rasmdagi ma'lumotlarni YaIMdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini, shuningdek, ularning tarmoqlar bo'yicha ulushi va eksport–import ko'rsatkichlarini yillar bo'yicha yanada kengroq tarzda quyidagi jadvalda ko'rish mumkin. Jadvalda bosqichma bosqich tarzda amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2000-2014 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi o'sib borishiga guvoh bo'lamiz, bunga bir qancha sabablarni ko'rsatish mumkin.

2.1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)

Yillar	YaIM	Sanoat	Qurilish	Bandlik	Eksport	Import
2000	31,0	12,9	38,4	49,7	10,2	27,4
2001	33,8	12,5	40,4	51,8	9,3	26,9
2002	34,6	15,4	42,0	53,5	7,5	24,9
2005	38,2	10,0	50,9	64,8	6,0	33,7
2006	42,1	10,9	52,1	69,1	10,7	34,0
2007	45,7	13,2	55,4	72,1	14,8	32,0
2008	48,2	14,6	58,4	73,1	12,4	35,7
2009	50,1	17,9	42,4	73,9	14,6	42,5
2010	52,5	26,6	52,5	74,3	13,7	35,8
2011	54,0	28,6	67,6	75,1	18,8	34,3
2012	54,6	29,7	70,0	75,6	14,0	38,6
2013	55,8	33,0	70,6	76,7	26,2	42,4
2014	56,1	36,8	69,5	77,6	19,8	45,4
2015	54,5	40,6	66,7	77,9	27,0	44,5
2016	57,3	45,3	66,9	78,2	26,0	46,8
2017	54,9	41,2	64,8	78,0	27,2	50,2
2018	59,4	34,7	66,6	78,4	26,5	55,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ulardan biri, 1991-yil 15-fevralda "O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi birinchi qonun qabul qilindi. Keyinchalik, bu qonunga zarur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilib, u ancha takomillashtirildi hamda yana bir qator qonunlar va qarorlar, qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan to'ldirildi. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-sonli yangi tahrirdagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni

qabul qilinib, bu qonunlar asosida farmon va qarorlar, shuningdek, davlat dasturlarida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi va ijrosi ta'minlandi. 2015-, 2016- va 2017 –yillarda ko'rsatkichlar turli darajada o'zgarib mos ravishda 54,5; 57,3 va 54,9 foiz ko'rsatkichlarini tashkil etgan. YaIM tarkibidagi kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi keyingi 10 yil mobaynida 50 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil etib kelmoqda.

Endi esa 2018-yildagi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2.2-jadvalda biznes va tadbirkorlik bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar bilan bo'g'liq ko'rsatkichlar keltirilgan. Bu yerda YaIMdagi 2017-yildagi ulush tarkibiga mikrofirmalar ham kirgan va ko'rsatkich 63,6 foizni tashkil etmoqda .

Biznes va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini shakllantirib borish va ularning rivojini rag'batlantirish borasida amalga oshirilgani natijasida, 2018-yilning yanvar–dekabrda 38,2 mingdan ortiq kichik tadbirkorlik(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) sub'yektlari tashkil topgan va bu shuni bildiradiki, 2017 yilning shu davriga nisbatan 122,0 foizga ko'paygan, YaIMdagi ulushi esa 59,4 %ni tashkil etgan. 2018-yilning yanvar-dekabr oylarida esa kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 59,4 %ni tashkil qildi. YaIM tarkibida pasayish yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi, ya'ni kichik korxonalar va mikrofirmalarga nisbat yirik korxonalar mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortgan.

2017-yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 229666 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilda ularning soni 33264 taga ko'payib 262930tani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilganlari soni ham 2017-yilga nisbatan 2018-yilda 10755taga ko'p. ularning sanotdagi ulushi 2017-yil 41.2%, 2018-yilda 34.7 %ni va mos ravishda investitsiya ulushi 34,8 % va 34,9% ni, qurilishdagi ulushi 66,2% va 66,6%ni, savdoda 88,3% va 86,3 %, xizmatlardagi ulushi 58,4% va 55,2%ni tashkil etib sanoatdan boshqa yo'nalishda ortib borish kuzatilgan.

2.2 -jadval

2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik(biznes)ning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2017 y.	2018 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	229666	262930	33264
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar	birlik	38167	48922	10755
YalM	%	63,6	59,4	-4,2
Sanoat	%	41,2	34,7	-6,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,1	98,1	0,0
Investitsiya	%	34,8	34,9	0,1
Qurilish	%	66,2	66,6	0,4
Savdo	%	88,3	86,3	-2,0
Xizmatlar	%	58,4	55,2	-3,2
Yuk tashish	%	54,2	54,4	0,2
Yuk aylanmasi	%	77,7	79,6	1,9
Yo'lovchi tashish	%	90,1	90,8	0,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	94,7	95,2	0,5
Eksport	%	22,0	26,5	4,5
Import	%	53,6	55,8	2,2

Manba: Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasi
ma'lumotlari.www.stat.uz

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soniga etibor qaratadigan bo'lsak, 2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Toshkent shahrida - 12071 ta- 24,7%ni tashkil etgani holda, Buxoro viloyatida - 3024ta, yani 6,2% ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Sirdaryo viloyati –1354 ta- 2,8% ni tashkil etgan.


2.3-jadval

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar (birlikda)

	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
O'zbekiston Respublikasi	38167	48922
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1648	2177
viloyatlar:		
Andijon	2476	3131
Buxoro	1993	3024
Jizzax	1776	2319
Qashqadaryo	1980	2365
Navoiy	1228	1810
Namangan	2353	2709
Samarqand	3259	4312
Surxondaryo	1988	2781
Sirdaryo	1189	1354
Toshkent	3894	5080
Farg'ona	3292	3780
Xorazm	1565	2009
Toshkent sh.	9526	12071

Manba: Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasi ma'lumotlari. www.stat.uz

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soniga etibor qaratadigan bo'lsak, 2.3-jadvalda ko'rishimiz mumkinki, ularning soni sezilarli darajada ortgan.




2.2-rasm. 2018-yilning yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)

Manba: Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasi ma'lumotlari. www.stat.uz

Endi esa, bu o'zgarishlarni birgina Buxoro viloyati misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq islohotlar qay darajada o'zini oqlayotganini kuzatishimiz mumkin. Buxoro viloyatida 2018-yilda ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) soni 15700 tani tashkil qildi, bu esa 2017-yilga nisbatan 16,3 foiz o'sgan.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo (19,4 %), sanoat (18 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (17,8 %), qurilish (14,6 %), yashash va ovqatlanish (10,3%) va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan (2.3 - rasm)¹¹.




2.3 – rasm. Buxoro viloyatida 2018-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi (foizda).

Manba: Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotnomasi, 2018-yil.

Buxoro viloyatida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik(biznes) ulushining 2017- 2018- yillardagi o'zgarishini kuzatadigan bo'lsak, ularda ham o'sishni ko'ramiz (2.4– rasm).

¹¹ Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni rivojlantirish – давр талаби (Бухоро вилояти мисолида). Хасанова Гулрух Джуманазаровна. Журнал «Интернаука» № 9 (91), часть 2, март, 2019 г. 34-б.

Buxoro viloyatida 2018-yilda yalpi hududiy mahsulotning 79,8 foizi (2017-yilda 79,2foiz) kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan.



2.4– rasm. Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik(biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida).

Manba: Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotnomasi, 2018-yil.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3501,8mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 41,1foizi) yoki 2017-yilga nisbatan 104,9 foizni tashkil etgan;
- 17294,2mlrd.so'mlik qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 104,8 foizni (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,0 foizi) tashkil etgan;
- Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 87,2 foizi yoki 7239,3mlrd.so'mi (o'sish 102,9 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 72,7 foizi yoki 4679,2mlrd.so'mi (o'sish 105,0 foiz) shakllantirilgan¹².

¹² Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ривожлантириш – давр талаби (Бухоро вилояти мисолида). Хасанова Гулрух Джуманазаровна. Журнал «Интернаука» № 9 (91), часть 2, март, 2019 г. 35-б

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari ta'siri o'laroq, Buxoro viloyatining 2018-yildagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi miqdorlarning 2017-yilga nisbatan o'zgarishlarini quyidagi jadvalda ko'rib chiqsak:

2.4-jadval


Buxoro viloyatining 2018-yildagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2018-yil	2018-yilda 2017-yilga nisbatan, foiz hisobida
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd.so'm	21151,9	104,6
Sanoat mahsuloti	mlrd.so'm	8520,7	103,0
Iste'mol tovarlari	mlrd.so'm	3797,3	103,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	mlrd.so'm	17463,9	105,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	mlrd.so'm	7846,1	50,4
Qurilish ishlari	mlrd.so'm	3231,0	107,3
Yuk aylanmasi	mln. tn-km	1699,1	96,6
Yo'lovchi aylanmasi	mln. yo'lovchi-km	9982,2	104,0
Chakana tovar aylanmasi	mlrd.so'm	8306,6	106,8
Xizmatlar, jami	mlrd.so'm	6439,8	107,7
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSH doll.	893,5	101,8
Eksport	mln. AQSH doll.	162,8	80,7
Impot	mln. AQSH doll.	730,7	108,1
Saldo (+; -)	mln. AQSH doll.	-567,8	x

Manba: Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotnomasi, 2018-yil.

Jadvalda kuzatish mumkinki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, yuk aylanmasi va eksportdan boshqa barcha ko'rsatkichlarda o'sish bo'lganini kuzatdik.

Quyidagi 2.5-diagrammani tahlil qilsak, bunda 2017-yilga nisbatan 2018-yilda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra qurilish sohasi eng yuqori o'sishga erishgan (7,3 foiz), YaHM o'rtacha o'sishi 4,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 5 foizga, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4,2 foizga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 5,5 foizga o'sganligini va sanoat ulushi eng kam o'sish sur'atini 0,3 foizni tashkil qilganligini ko'rish mumkin. Albatta bu o'zgarishlarda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining ahamiyati katta.



Iqtisodiy faoliyat turlari

2.5–rasm. Buxoro viloyatida 2018-yilda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari.

Manba: Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotnomasi, 2018-yil.

Shuningdek, Tadirkorlikning butun dunyo bo'ylab tashkil etilishi reytingida O'zbekiston biznes yuritish indeksi bo'yicha 2015 yilda 42 – o'rinni egallagan bo'lsa, 2018-2019- yillarda bu ko'rsatkich 1- 10- o'rinni egallashi bashorat qilingan. Prosedura bo'yicha 2015- yilda 5 – o'rinni egallagan bo'lsa, 2017- 2018 yillarda 2- chi o'rinni egallashi aytilgan. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish 65 kun vaqt talab qilgan bo'lsa, 2018-2019 yillarda 1 kunni talab etishiga erishish rejalashtirilgan. Buni 2.6 – rasmda ko'rishingiz mumkin.

O'zbekiston biznes yuritish indeksi bashorati (2015–2019 yil) Tadbirkorlikning butun dunyo bo'ylab tashkil etilishi reytingi								
Korxona tuzilishi	Kanada	Singapur	Qozog'iston	Rossiya	2015 O'zbekiston	2017 O'zbekiston	2018-2019 Yillar prognozi	
Reyting	3	10	21	41	65	42	30-42	1-10
Protseduralar	2	3	4	5	7	5	4	2
Davr	1.5	2.5	5	12	7.5	6.5	3-4	1
Narx	0.4	0.6	0.1	1.2	3.3	3.4	3.0	1.5
Kapital	0	0	0	0	0	0	0	0

2.6 – rasm. O'zbekistonda biznes yuritish indeksi bashoratlari.

Manba: O'zbekiston matbuot va axborot agentligi (www.api.uz) .2016 yil.

Keltirilgan bashoratlar isboti o'laroq, haqiqatdan ham bu ko'rsatkichlar qayd etildi. Bundan tashqari, Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 – yil mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim yil sifatida belgilanib, o'ziga xos nom berilib, “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash” yili, - deb e'lon qilindi. Bu esa yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, mamlakatimiz reytingini dunyo reytingida yuqori o'rinlarni egallashini, yoshlarni biznes va tadbirkorlikka jalb etishga katta sabab bo'ldi desam adashmaymiz.

Shuningdek, 2018 - yilda Jahon banki va Xalqaro moliyaviy korporatsiya tomonidan qabul qilingan “Doing Business - 2018” reytingida O'zbekiston 74 - o'rinni egallab, bir yil avvalgi ko'rsatkichdan 13 pog'ona yuqorilagan. 10 ta indikatorning yarmida sezilarli o'sish qayd etilgani reytingda ko'tarilishiga asosiy sababchi bo'ldi (2.3-jadval). Jadvalda ko'rib turganimizdek, reytingi ko'tarilgan indikatorlarning ko'pchikigida tadbirkorlik faoliyatida turli aralashuvlar va byurokratiya ta'siring nisbatan kamayishi, ya'ni, avtomatlashtirilgan tizimlarning yo'lga qo'yilishi o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda olib borilgan islohotlar 2018-yilda Jahon bankining «Doing Business 2018» hisobotida respublika reytingi dunyoning 190 mamlakati orasida 87-o'rindan 74-o'ringa ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

“...Ko'rilgan zarur choralar sharofati bilan O'zbekiston ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishi dinamikasida yetakchi davlatlar o'nligiga kirdi. Bir yil ichida mamlakatimiz Jahon bankining «Doing Business» reytingida 13 pog'ona yuqoriladi. Biz o'z oldimizga 2025 yilga borib ushbu reytingda kuchli yigirmatalikka kirishdek ambitsiyali va bema'lol amalga oshirsa bo'ladigan maqsadni qo'yanmiz», — dedi Seulda o'tgan Koreya – O'zbekiston biznes forumida so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev¹³

¹³ O'zbekiston 2025 yilga borib Doing business reytingida kuchli yigirmatalikka kirishi kerak – Mirziyoyev. 23.11.2017. kun.uz.

O'zbekiston

O'zbekiston jahon bankining
"Biznesni yuritish – 2018" reytingida

Yillar	2015	2016	2017	2018
	103	82	87	74
 Biznesni ro'yxatdan o'tkazish			25	11
 Qurilishga ruxsatnoma olish			147	135
 Elektr tarmoqlariga ulanish			83	27
 Mulkni ro'yxatdan o'tkazish			75	73
 Kreditlash tizimi			44	55
 Minoritar investorlar himoyasi			70	62
 Soliqqa tortish			138	78
 Xalqaro tijorat			165	168
 Shartnomalar ijrosini ta'minlash			38	39
 To'lovga layoqatsizlik yechimi			77	87

2.7- rasm. O'zbekiston Jahon bankining biznesni yuritish reytingida.

Manba: xabar.uz "Jahon bankining "biznesni yuritish" reytingi.

Navbatdagi «Doing Business 2019» hisobotida esa, O'zbekiston Respublikasining reytingi 74-o'ringandan 76-o'ringacha pasaydi. Bu esa hukumat tomonidan O'zbekistonda biznes yuritish shartlarini hanuzgacha xalqaro me'yorlarga to'liq javob bermaydi degan fikrga kelinishiga va shu sababli, Prezidentning mamlakatda maksimal darajada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish orqali reytingda O'zbekiston pozitsiyasini ilgari surishga qaratilgan

PQ-3852-son Qarori qabul qilindi.¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Jahon Bankining yillik “Doing Business -2019” hisobotida 2019 yil uchun 67.40 ball bilan 190 mamlakat ichida 76 o‘rinni egalladi. Reytingning subindikatorlari kesimida O‘zbekiston quyidagi o‘rinlarni egallamoqda (2.4 – jadval).

2.4 - jadval

“Doing Business -2019” hisobotidagi ba’zi ko’rsatkichlar.

№	Subindikator nomlanishi	Reyting
1	Biznesni boshlash	12
2	Qurilishga ruxsat olish	134
3	Elektr tarmog'iga ulanish	35
4	Mulkni ro'yxatdan o'tkazish	71
5	Kredit olish	60
6	Minoritar investorlarni himoya qilish	64
7	Soliqlarni to'lash	64
8	Xalqaro savdo	165
9	Shartnomalarni bajarish	41
10	Bankrotlikni e'lon qilish	91

Manba: Reyting o'rinlari. <http://mineconomy.uz>. 27/05/2019

Jumladan, O‘zbekiston “Korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish” bo‘yicha - 12, “Elektr ta‘minot tizimiga ulanish” bo‘yicha – 35, “Shartnomalar ijrosini ta‘minlash” bo‘yicha – 41, “Kredit olish” bo‘yicha – 60, “Qurilishga ruxsat olish” bo‘yicha – 134 va “Xalqaro savdo” bo‘yicha 165-o‘rinni egalladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2018-yil 7-iyunidagi PQ-3777-son “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan nizom ishlab chiqilgan bo‘lib tadbirkorlikni

¹⁴Jahon bankining “Doing Business 2019” hisobotida “Xalqaro savdo”, “Qurilish uchun ruxsatnomalar olish”, “To‘lovga layoqatsizlik ruxsati” indikatorlari bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini ilgari surishda ijobiy dinamika yo‘qligi sabablarini o‘rganishi 2019 Apr 24. <http://www.uz.undp.org>.

yanada rivojlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha nizom ishlab chiqildi.

2019-yilda mart oyida Prezidentimiz "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hujjatni imzoladi va unga ko'ra "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida hozirgi kunda aholiga 8 foizlik imtiyozli kreditlar ajratib kelinmoqda. Bu ham mamlakatimizda biznes va tadbirkorlik rivojiga yanada turtki bo'lishiga ishonamiz.

1.3. O'zbekistonda biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va soha vakillarini tayyorlash bilan bo'g'liq masalalar

Mustaqillikning o'tgan 26 yili, avvalo, davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilish orqali rivojlantirildi. Shuningdek, 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatimiz iqtisodiyoti amalda o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Natijada sanoat tarmoqlari, soliq-byudjet tizimi, bojxona, valyuta siyosatida va yana ko'plab sohalarda chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi, yanada qulay muhit yaratildi. Mamlakatimiz rahbari Shavkar Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon ham bejiz emas, ushbu qaror respublikamiz rahbariyati tomonidan mazkur sohani rivojlantirishga qaratilayotgan jiddiy e'tibordan dalolat berib turibdi. Jumladan, qisqa muddat ichida mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'lantirilgan O'zbekiston Respublikasining uchta qonuni, Prezidentimizning 20 dan ortiq farmoni va 25 ta qarori qabul qilindi, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga

oid Davlat dasturi doirasida ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid 60 dan ortiq chora-tadbirlar amalga oshirildi.¹⁵

Shunday qilib tadbirkorlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, yetarli darajada rivojlana olmaydi va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimida o'ziga munosib o'rinni egallay olmaydi. Shuning uchun O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati, tizimi, mexanizmi shakllantirilgan va ular amalga oshirib kelinmoqda. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati – bu tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari konsepsiyasi, dasturlari, amalga oshirish mexanizmi, yo'llari, yo'nalishlari, vositalari, usullari, chora-tadbirlari majmuidir.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi bu – tadbirkorni qo'llab-quvvatlash siyosati, dasturlari, mexanizmi, va ularni amalga oshirishni tashkil etishni ta'minlashga ma'sul davlat organlari va nodavlat tashkilotlar majmui hisoblanadi. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Tadbirkorlikka oid me'yoriy huquqiy bazani yaratish va takomillashtirib borish. Tadbirkorlikka oid bir qator qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasi qarorlari qabul qilindi va ularning qatori kengayib bormoqda. Faqat ularning haqiqiy ijrosini ta'minlash va nazorat qilish lozim.

Tadbirkorlikning rivojlanishini tashkiliy ta'minlash. Bu yo'nalish qo'llab-quvvatlash davlat organlari va nodavlat tashkilotlarni aniqlash va tuzish, markaziy va mahalliy organlarning shu sohadagi vakolatlari va vazifalarini aniq belgilash, tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi va mintaqaviy dasturlarini tuzish va amalga oshirishni tashkil etish hamda boshqa tashkiliy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Bunday qo'llab-quvvatlash sarmoya to'plash, investitsiyalarni jalb qilish va amalga oshirishga ko'maklashish, imtiyozli kreditlar berishni tashkil etish va uni kafolatlash, soliq imtiyozlari berish,

¹⁵ «Кулай ишбилармонлик муҳити-тadbirkorlik фаолиятини ривожлантириш гаровидир». «Голос Узбекистана» газетаси 2018 йил 21 февраль 23-сони.

bojxona to'lovlaridan to'liq yoki qisman ozod qilish, to'lovlarni kechiktirish, tezlashtirilgan amortizatsiyani joriy qilish, sug'urta ishlariga ko'maklashish va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi. Respublikada tadbirkorlikni kreditlar yordamida qo'llab-quvvatlash salmoqli o'rinni egallaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish soxasida ko'maklashish. Bu yo'nalishda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik tashkilotlaridan yangi texnika va tugallangan ishlanmali tadbirkorlik sub'ektlariga berishni tashkil etish, patent-litsenziya siyosatini o'tkazish, bozor tadqiqotlariga yordam berish, xom-ashyo va moddiy texnika resurslarini kafolatli ajratilishini tashkil qilish, tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirish uchun biznes inkubatorlar tarmog'ini shakllantirish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat buyurtmalarini bajarishga jalb etish, ularni bajarish uchun turli imtiyozlar berish va qulayliklar yaratish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash. Bu sohada tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini ro'yhatdan o'tkazish, mazkur faoliyatni axborot bilan ta'minlash, moslashuvchan soliqlar va imtiyozlar belgilash, boshqa moliyaviy yordam ko'rsatish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq tavakkalni sug'urta qilish, maxsulaotni eksport va import qilish tartibini belgilash, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, valyuta jamg'armalari va boshqa jamg'armalar tashkil qilish va ulardan foydalanish tadbirlari nazarda tutilgan.

Kichik korxona bilan shartnomalar tuzishga ko'maklashish. Kichik va yirik xo'jalik sub'ektlarini bir-birga qarama-qarshi qo'ymasdan, ular bir-birlarini to'ldirishlari, ma'lum bir soxada kichik va yirik korxonalar birgalikda o'zaro uzviy bog'liq yagona majmua tarzida ishlashlari va rivojlanishlari uchun zarur sharoitlar yaratish singari tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

Tadbirkorlikning axborot-maslahat ta'minotini tahlil etish va amalga oshirish. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida tadbirkorlik faoliyati uchun yanada keng imkoniyat va erkinliklar yaratish maqsadida qator muhim qonunchilik tashabbuslarini ilgari surdi.

Jumladan, yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinlikligining kafolatlari to’g’risida”gi qonun, “Raqobat to’g’risida”, “Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tekshirishlar qisqartirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonunlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tganlar: “ Biz 2018-yilga “ Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”, - deb nom berib, Davlat dasturi doirasida 21 trillion so‘m va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirganimiz o‘tgan yili yaxshi niyat bilan boshlagan ishlarimizning natijasini ko‘rsatib turibdi. Har bir oila – tadbirkor”, “ Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 ming 600dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi. ... Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlar jadal davom ettiriladi. Buyuk alloma Najmiddin Kubro hazratlari “Muvaffaqiyatni – sa’y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko‘rdim”, deb bejiz aytmaganlar. Haqiqatdan ham, biz faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, faravon hayotga erisha olamiz”¹⁶ .

Respublikamizda tadbirkorlik sohasiga endi kirib kelayotgan yoshlar, korxona rahbarlari va ishlab chiqarish xodimlariga tadbirkorlik faoliyatiga oid zarur bilimlarni berishga e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat, bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PQ-2897- sonli qaroriga asosan, tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish respublika markazi tashkil qilingan. Markaz respublika miqyosida kasb-hunar kollejlari doirasida mashg‘ulotlardan bo‘sh paytlarda zarur yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etadi. O‘quv kurslarini tashkil qilish maqsadida markaz tomonidan oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari, vazirliklar va idoralar mutaxassisleri, respublikamizda ishlayotgan katta muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkorlar va

¹⁶ Ш.М.Мирзиёев. Олий Мажлисга Мурожаатнома. “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 28 декабр.

xorijiy mutaxassislar jalb etilgan. Shuningdek o'quv kurslari barcha tadbirkorlar uchun bepul!

O'quv kursi mashg'ulotlari 22 akademik soatni o'z ichiga olib, mashg'ulotlar davomida, bank xodimlari, "yagona darcha" markazi xodimlari, Savdo-sanoat palatasi, soliq inspeksiyasi xodimlari, tajribali tadbirkorlar ushbu kursga taklif etilib tadbirkorlik bilan bo'g'liq bilimlarni berishda hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, Markaziy bank, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi hamkorligida ushbu kurs onlayn tarzda tashkil etilgan bo'lib, maxsus Direktor.uz sayti yaratilgan. Saytdan registratsiyadan o'tib, bepul masofaviy bilim olish mumkin. Onlayn kursda tadbirkorlikda mablag'larni to'g'ri tasarruf etish o'rganish mumkin. Mashg'ulotni mustaqil tarzda o'zingiz uchun qulay paytda o'zlashtirib borasiz. Mashg'ulot o'z ichiga dars matnini, videoma'ruzani, test topshiriqlarini oladi, har bir bosqichdan test topshirib keying bosqichga o'tiladi. Mashg'ulot 11ta bosqichni o'z ichiga olgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Kirish. Bunda siz yakka tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxs, mas'uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxona, ustav kapitali va muldorlik.

2. Tushum. Operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat; Tushum va pul kirimi; tushum prognozi; talabning mavsumiyligi.

3. Joriy (operatsion) xarajatlar. Aylanma aktivlar, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar. Yillik prognoz, tushum oshganda va kamayganda doimiy xarajatlar ulushining o'zgarishi.

4. Joriy foyda. Qanday hisoblanadi, EBITDA. Qo'shimcha sotuvlar.

5. Sof foyda. Investitsiyalar, investitsion xarajatlar. Amortizatsiya. Moliyaviy xarajatlar.

6. Foyda bu, pul emas. Debitorlik qarzi, kreditorlik qarzi. Tovar-moddiy zaxiralar. Pul qayerda yashirilgan.

7. Pul oqimlari. Kirim va chiqimlar. Pul oqimlari tarkibi. Cash Flow. Kassa uzilishini bartaraf etish.

8. Balans 1-qism. Balans – bu Aktivlar va passivlar. Xususiy kapital. Majburiyat. Balans tenglamasi. Boshlang'ich balans.

9. Balans 2-qism. Balans prognozi. Foydaga ta'sir qiluvchi xo'jalik operatsiyalari. Balans qanday o'qiladi?

10. Moliyaviy model. Ziyonsizlik nuqtasi. Biznesni rivojlantirish variantlarini ishlab chiqishda moliyaviy modeldan foydalanish. Ziyonsizlik nuqtasi – natural birliklarda va pul ifodasida. Ziyonsizlik nuqtasi grafigi.

11. Oqilona qarorgacha 7 qadam. Takrorlash. Tushum; Operatsion xarajatlar; EBITDA, sof foyda; Pul oqimlari prognozi; Balans prognozi; 3ta ssenariy, ziyonsizlik nuqtasi¹⁷.

Yuqoridagi darslarni o'zlashtirib quyidagi bilimlarga ega bo'lasiz:

- To'g'ri qaror chiqarish;
- Moliyaviy hisobotni o'qish;
- Biznesni moliyaviy muammolardan asrash;
- Bank xodimlari bilan bimalol muloqot qilish.

Darslarni o'zlashtirgach sizga markaz tomonidan sertifikat beriladi. Hozirgacha ushbu kurslarda 12mingdan ziyod o'quvchilar o'qitilgan va ularning 10 foizi banklardan imtiyozli kreditlar olib o'z faoliyatlarini boshlashga erishgan.

¹⁷ Moliyaviy savodxonlik asoslari bepul onlayn kursi. Direktor.uz

II.BOB. IQTISODIY FANLAR DOIRASIDA “BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI” MAVZUSINI O‘QITISH ASOSLARI

2.1. Yoshlarda biznes va tadbirkorlik faoliyatiga oid tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati navqiron avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, iste’dod va salohiyatini keng namoyon etishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni bu borada muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan dasturda ham yoshlar tadbirkorligi rivojlanishini yanada rag‘batlantirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Xususan, davlat organlari tomonidan yoshlar tadbirkorligini tashkil etishga ko‘maklashish, tadbirkorlik faoliyatiga yoshlarni jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar berish, yoshlarga tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish, ta’lim muassasalari bilan ish beruvchilar o‘rtasida shartnoma asosidagi hamkorlikni rivojlantirish, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan. Bugun yurtimizda yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish borasida katta ishlar qilinayotganini inkor etmagan holda, aytish mumkinki, ularning mehnatda toblanib, halol rizq topishi, o‘z oilasi, ota-onasiga nafi tegishi uchun hamma ham birday harakat qilayotgani yo‘q. Davlatimiz rahbari ushbu achchiq haqiqatni bejiz eslatmadi. Axir o‘zingiz o‘ylang, ishsizlarning aksariyatini kollej bitiruvchilari tashkil etadi. 2017 yili 477 ming 743 yigit-qiz kollejlarni bitirib chiqqan va ularning 438 ming 503 nafari ish bilan ta’minlangan, degan statistika berilgan. Prezidentimiz haqli savolni

o'rtaga qo'ydi: "Bu raqamlar qanchalik to'g'ri? Agar barcha kollej bitiruvchilari ishga joylashayotgan bo'lsa, ishsiz yoshlar qayerdan paydo bo'lyapti? Kollej bitiruvchilari bilan to'rt tomonlama shartnomalarni nomigagina imzolab, o'zimizni o'zimiz aldamayapmizmi?"¹⁸ Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida (Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari) "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlangan alohida band kiritilgan bo'lib, unga ko'ra, tegishli davrda o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Mamlakatimiz rahbarining bu masalalar bilan bo'liq, ikkita muhim - "Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni va "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yoshlar tadbirkorligini har tomonlama yuqori darajaga olib chiqish, yoshlar salohiyatidan oqilona foydalanishga chaqiriqdir. Jumladan, hukumatimizning 2017-yil 16 oktyabrda "Yoshlar tadbirkorligi bo'yicha klasterlarni yaratish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Unga ko'ra, yaqin yillar ichida O'zbekistonning chekka hududlarida klasterlar yaratiladi. Ularning faoliyatini O'zbekiston Yoshlar ittifoqining tuman va shahar kengashlari boshqarishi ko'zda tutilgan. Klasterlarni yaratishdan ko'zlangan maqsad – yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va ularga zarur bo'ladigan yordam ko'rsatishdan iborat. Shuningdek, klasterlar yoshlarga tadbirkorlik bo'yicha maxsus o'quv kurslarini o'tashida ko'maklashadi, ya'ni ular o'ziga xos biznes-inkubator sifatida ishlaydi. Bunda olingan bilim va tajriba yosh tadbirkorlarning faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularni raqobatbardosh qilib tarbiyalaydi. Xususan, yoshlar tadbirkorligini kompleks rivojlantirish va yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga faol jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi

¹⁸Intervyu O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi Qahramon Quronboyev 27.07.2017

to'g'risida"gi PF-5466-sonli farmoniga muvofiq tashkil etilgan "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi buning yaqqol isboti hisoblanadi.¹⁹

Yuqorida keltirilganlarning natijasi o'laroq, quyidagilarni sarhisob qilishimiz mumkin. Hozirda Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq 3ta normativ-huquqiy hujjatlar, 1ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori qabul qilingan bo'lib, qisqa davr ichida Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi bo'yicha 3 ming 161 ta biznes loyihalarga jami 408,8 mlrd. so'm imtiyozli kredit ajratish orqali 20 ming 34 ta yangi ish o'rni yaratilishiga erishilgan. Barcha tuman (shahar)larda qurilishi rejalashtirilgan "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazlaridan 15 tasi hamda "Yoshlar mehnat guzari" komplekslaridan 101 tasi foydalanishga topshirilib, ularda jami 1 ming 549 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi ijrosi natijasida, 2018 yil davomida jami 32 ming 343 nafar yoshlarning bandligi ta'minlanishiga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida 2 trln. so'm mablag' ajratilishi, kelgusidagi ulkan vazifalarni belgilab berdi. Shu munosabat bilan, joriy yilda mamlakatimiz yoshlarining 1,9 trln. so'mlik 7 mingga yaqin loyihalari, 61,5 mlrd. so'mlik 413 ta yoshlar mehnat guzari va kovorking-markazlari, 11,1 mlrd. so'mlik Jamg'arma ulushi bilan ishtirok etadigan tadbirkorlik loyihalarining manzilli ro'yxatlari shakllantirildi. Mazkur loyihalarining hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuniga qadar 70 mingta yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilmoqda.²⁰

O'zbekistonda shaxsning asosiy haq-huquqlaridan biri iqtisodiy ta'lim olishdan iborat. Bu mas'uliyatli vazifalarni hayotga tatbiq etish maktablardagi ta'lim jarayonini isloh qilishni taqozo etadi:

¹⁹ "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. 18.01.2019. kun.uz.

²⁰ "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. 18.01.2019. kun.uz.

- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni e'tiborda tutgan iqtisodiy holda ta'lim-tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyg'usi asosida boyitish va ta'komillashtirish;
- iqtisodiy ta'lim samaradorligini oshira borib jahon talablari darajasiga olib chiqish;
- iqtisodiy ta'lim-tarbiya bo'yicha muqobil o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar yaratish;
- iste'dodli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- ilg'or ijodkor tajribalarga tayanish;
- iqtisodiy ta'lim-tarbiya tizimida ilm-fan, texnika yutuqlariga asoslangan holda tajriba-sinov ishlarini olib borish va natijalarini pedagogik amaliyotga tatbiq etish;
- o'qituvchilarning yangi avlodini tayyorlashga kirishish;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnika negizini mustahkamlash, ta'limni kompyuterlashtirish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv dasturlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda iqtisodiy, xususan biznes va tadbirkorlikka oid tushunchalarni shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan, tadbirkorlik asoslari, mikro va makroiqtisodiyot va boshqa darslarda talabalarda mustaqillik tufayli jamiyatimiz hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'lganligi taraqqiyot bilan birga mamlakatda, o'ziga xos milliy o'zgarishlar paydo bo'lib rivoj topayotganligini, iqtisodiy islohatlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida o'quv materiallarida ma'lumot taqdim qilinishi belgilangan.

2.2.O'rta maxsus ta'lim muassasalarida biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan bo'g'liq fanlarni o'qitish amaliyoti

Biz o'rta maxsus ta'lim muassasalarida biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan bo'g'liq fanlarni o'qitish jarayonini o'rganish, tahlil qilish va takliflar kiritish maqsadida Buxoro iqtisodiyot va bank kollejida amaliyot o'tadik. Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligining 11- avgust 1976- yil №372 raqamli buyrug'iga muvofiq Buxoro Tog'-geologiya texnikumi, 1-sentyabr 1976- yildan boshlab Reja-iqtisod texnikumi, 13-yanvar 1992-yil № 13 sonli buyruqqa binoan Tijorat texnikumi va 8-iyul 1992-yil № 234 sonli buyruqqa binoan Iqtisodiyot va bank kolleji deb nomlanadi. Buxoro viloyati hokimining 2005-yil 5-avgust 139-sonli qarori bilan kasb-hunar kolleji maqomi berilgan.

Kollejda talabalar iqtisodiyot va bank sohasi bo'yicha turli yo'nalishlarda o'qitiladi. Kollejning 3290900- Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi misolida iqtisodiy fanlarning o'qitilishini tahlil qiladigan bo'lsak, yo'nalish doirasida tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari, iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, marketing asoslari va menejment asoslari kabi tadbirkorlik va biznesga taalluqli anchagina fanlarni uchratish mumkin. Bular orasida tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari fani namunaviy o'quv rejaga asosan 113 soat davomida o'qitiladi.

Shuningdek, kollejda talabalarda tadbirkorlik tushunchasi, uning mohiyati qonun-qoidalari haqidagi bilimlarini shakllantirish maqsadida quydagi fanlar o'tiladi:

- Tadbirkorlik asoslari(80 soat, uchinchi kurs talabalariga)
- Korxona iqtisodiyoti (80 soat, birinchi, ikkinchi kurs talabalariga)
- Mikroiqtisodiyot (80 soat, uchinchi kurs talabalariga)
- Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari (113 soat, uchinchi kurs talabalariga)
- Makroiqtisodiyot(80 soat, uchinchi kurs talabalariga)
- Moliya,pul va kredit(80 soat, uchinchi kurs talabalariga)

«Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari» o'quv kursi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilarining tadbirkorlik va biznes sohasida bilimli bo'lishiga, amaliy ko'nikmalarga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishiga, o'z shaxsiy biznesini ochishda yoki yollanma xodim sifatida ish beruvchi bilan bo'ladigan suhbatda o'z imkoniyatlarini ko'rsatib

bera olishiga, yangi ish joyiga muvaffaqiyat bilan moslashishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

2.1-jadval

“Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari” fanidan nazariy va amaliy mashg’ulotlari mavzularining soatlari bo’yicha taqsimot jadvali

№	Mavzular nomi	Jami soatlar	Nazariy	Amaliy
1	Fanga kirish	2	2	
2	Nima uchun aynan tadbirkorlik?	6	4	2
3	Biznes g’oya – biznesni asosi	6	2	4
4	Biznesni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy shakllari	4	2	2
5	Biznesni yo’lga qo’yish bosqichlari, texnik-iqtisodiy asoslash	8	2	6
6	Biznesni boshqarish va moliyalashtirish	6	2	4
7	Biznesni moliyaviy rejalashtirish va sug’urta	6	2	4
8	Tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish asoslari	12	6	6
9	Tadbirkorlik faoliyatida marketing	6	2	4
10	Ishga joylashtirish texnologiyasi	20	8	12
11	Muvaffaqiyat psixologiyasi	4	2	2
	Jami:	80	36	44

Manba: “Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari” fanidan dastur.

Fanning maqsadi – bozor munosabatlari sharoitida o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quvchilariga tadbirkorlik asoslari, bitiruvchilarni ishga joylashtirish tizimini rivojlantirish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish, ishga joylashtirishda va kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishda o’quvchilarning shaxsiy

bilim, ko'nikma hamda malakasini shakllantirish, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi vakolatlarini bilishi, o'z kasbi va mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh xodim sifatida tayyorlash, muzokaralar olib borishni o'rgatish ko'nikmalarini o'rganishlari uchun amaliy bilimlar majmuasini berishdan iboratdir.

Fanning asosiy vazifalari:

- talabalarning tadbirkorlik sohasidagi ma'naviyatini shakllantirish va huquqiy tarbiyasini tarkib toptirish, ko'nikmalarini o'rgatish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish, rag'batlantirish, unga keng yo'l berish, tadbirkorlik faoliyatini kafolatlash to'g'risidagi ko'pgina qonun va farmonlarni, ya'ni tadbirkorlikning huquqiy, me'yoriy va tashkiliy asoslarini;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish jarayonlarini, biznesni amalga oshirish bosqichlari, biznesdagi axloq madaniyati, biznes-rejani tuzish qoidalarini mukammal bilish;
- tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tartibi, soliqlarning iqtisodiy mohiti va amal qilish xususiyatlari, soliq tizimi va uning tarkibiy tuzilishi;
- inson resurslarini boshqarish tizimi jarayonida ishga joylashtirishning zamonaviy usul va texnologiyalarini o'rgatish;
- bitiruvchilarning yuqori darajada raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning kasbiy salohiyatini oshirish;
- kelgusidagi kasbini rejalashtirishni o'rgatish, ish izlashda aniq maqsad va rejalarni belgilay olishi;
- axborot izlash ko'nikmalarini; ish beruvchi bilan bo'ladigan suhbatda o'z imkoniyatlarini ko'rsatib bera olishiga; tarjimai hol va yo'llanma xatlarni yaratishga o'rgatish;
- jahon andozalari darajasida olingan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay bilish va boshqalar.

Fanni o'rganishga qo'yiladigan talablar:

Bitiruvchilarga fanni o'qitishda quyidagi talablarni shakllantirish ko'zda tutilgan:

- tadbirkorlik va biznes faoliyatini mohiyatini anglay olishi;

- tadbirkorlikka xos xarakter qirralarini shakllantirishi;
- tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan shug'ullanish qarorini qabul qilishga tayyorlash;
- mehnat jamoasi bilash ishlashga tayyorlash;
- kelgusidagi kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglay olishi;
- kasbiy faoliyatini olib borish uchun yuqori darajadagi ishtiyoqning mavjudligi.

O'quvchilar quyidagilarni bilishi kerak:

- tadbirkorlik va biznes bo'yicha boshlang'ich bilimlarga ega bo'lish;
- tadbirkorlik va biznes faoliyatida sodir bo'layotgan jarayonlarni muhim belgilari bo'yicha o'rganish;
- tadbirkorlik va biznes faoliyatiga daxldor ma'lumotlar bilan ishlash, ularni tashkil qilish asosida xulosa chiqarish usullarini o'zlariga singdirish.
- mehnat bozori kon'yunkturasini va ish izlash usullarni;
- o'zining kelgusidagi kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini;
- ijobiy imidj hosil qilish qoidalari va usullarini bilishi.

O'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- fanning mazmun-mohiyatini ta'riflay olish;
- tadbirkorlik va biznesda sodir bo'layotgan jarayonlar bo'yicha ma'lumotlarni o'rganish;
- tadbirkorlik va biznesning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;
- kelgusidagi kasbini rejalashtira olishi;
- ish izlay olishi va ishga joylashishda o'zini-o'zi namoyish qila olishi.
- axborotlar izlay olishi;
- suhbatdan o'ta olishi;
- o'z uslubini yarata olishi.

O'qitishning metodlari va texnikalari: kichik-ma'ruza, hikoya, tushuntirish, yo'riqnoma berish, namoyish, ko'rsatish, videometod, kitob bilan ishlash,

INSERT, mashq, masala, test, “Venn-diagramma”, suhbat, bahs, aqliy hujum, pinbord, muammoli metod, keys-stadi, loyiha, amaliy ishlash metodlari.

Shuningdek, kollejda yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlash, ularda tadbirkorlikka nisatan motivatsiya uyg'otish, ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida turli xil biznes-treninglar, debat bellashuvlari, “Yosh tadbirkor”, “Yosh iqtisodchi”, “Yosh moliyachi” kabi to'garaklar olib boriladi.

Ushbu tadbirlar talabalarda tadbirkorlikka qiziqish uyg'otadi, iqtisodiyot, biznes sohasidagi yangiliklar bilan tanishishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentni tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarni o'rganishga, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini O'zbekiston iqtisodiyoti bilan qiyosiy tahlil qilishga undaydi va ularda ilmiy – amaliy konfrensiyalarda qatnashishda bilim, ko'nikmani shakllantiradi. Misol tariqasida kollejdagi yoshlar ittifoqi tomonidan tadbirkorlar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan biznes-treninglarini olib qarasak, ushbu seminar kurslarining asosiy mazmuni quydagicha:

Kursning maqsadi - yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka jalb etish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, amaliyotda samarali biznes loyihalar tuzish, o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlab olishning nazariy va amaliy asoslarini o'rgatishdan iborat.

1-Dars: Tadbirkorlikka kirish motivatsiyasi. Tadbirkorlik faoliyati; Biznes haqida tushuncha, odamlarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishga undovchi omillar, tadbirkorning psixologiyasi, tadbirkorlik bilan shug'ullanish oldidagi qo'rquv va uni yengish, tadbirkor va yollanma ishlovchi odam o'rtasidagi farqlar.

2-Dars: Muvaffaqiyatli inson tamoyillari. Muvaffaqiyat haqida tushuncha, muvaffaqiyat, omad va mehnat, muvaffaqiyatli odam xususiyatlari, surunkali omadsizlik sabablari, muvaffaqiyatga erishgan odamlar hikmati.

3-Dars: Tadbirkor kim? Tadbirkor tushunchasi xaqida; tadbirkorchilik va tavakkalchilik, tadbirkorlik turlari, “kasanachi” “xususiy tadbirkor” “investor” tushunchalari va ularning o'zaro bog'liqligi.

4-Dars: Stress-menedjment. Stress nima? Stressning odam sog'lig'iga ta'siri, stress va ruhiyat, stressning oqibatlari, stressning bartaraf qilish usullari.

5-Dars: Psixologik testlar. Temperament tushunchasi va uning turlari, tadbirkorga xos bo'lgan xususiyatlar, tadbirkorlik xususiyatlarini aniqlashga doir bo'lgan testlar va ularning ahamiyati.

6-Dars: Biznes g'oya tanlash va uning tahlili. Biznes konsepsiyasi, biznes g'oya izlash va tanlash manbalari, kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyat va tahdidlar taxlili, biznes g'oya tanlashda amaliy maslahatlar, biznes reja tushunasi.

7-Dars: Marketing tadqiqot. Bozorni o'rganish. Mahsulot iste'molchilari kim?, iste'molchilarning mahsulot jihatlariga e'tibori, raqobatchilarni baholash, bozorni o'rganishda amaliy maslahatlar.

8-Dars: Korxonaning yuridik maqomini tanlash. Qay tarzda biznesni boshlash mumkin?, yuridik shahs maqomiga ega bo'lmasdan biznesni yuritish, yuridik shahs sifatida biznes yuritish, biznesni tashkil etish shakllarining afzalliklari va kamchiliklari, tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib qoidalari, summasi.

9-Dars: Kichik biznesda buxgalteriya. Buxgalteriya hisobi, moliyaviy rejalashtirish, buxgalteriya hisoboti shakllari va ularni topshirish.

10-Dars: Tadbirkorlik va soliq. Tadbirkorlikning xuquqiy javobgarligi, O'zbekistonda soliqqa tortish tartibi, soliqlar turlari, soliqlarni to'lash tartibi.

11-Dars: Tadbirkorlikning moliyaviy manbalari va kredit. Moliyalashtirish – tadbirkorlikning asosi, moliyalashtirish turlari: grantlar, kredit tushunchasi, kredit mexanizmi va kredit to'lash tartibi, kredit uchun kerakli xujjatlar.

12-Dars: Biznes reja – tadbirkorlikni rejalashtirish asosi. Biznes rejaning mohiyati, biznes rejaning shakli, biznes rejaning tarkibiy qismlari va ularning mazmuni, biznes reja tuzishda amaliy maslahatlar.

Ushbu ma'ruzalar videoproyektorlardan foydalanib prezentatsiya qilish tarzida olib boriladi hamda o'yin tarzida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida tinglovchilarning quyidagi omillari inobatga olinadi:

- mustaqil nazariy tayyorgarlik darajasi;
- amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish jarayonida nazariy bilimlarni to'g'ri qo'llay bilinganligi.

Seminar mashg'ulotlari jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

- seminar mavzusi doirasida ko'rsatilgan savollar bo'yicha tushunchaning mavjudligi;
- mashg'ulotga tayyorgarlik jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanilganligi;
- tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (darslik, davriy matbuot, internetdan olingan ma'lumotlar va xokazo) foydalanganligi;
- har bir savol bo'yicha xulosalarning to'g'riligi.

Bundan tashqari ushbu seminar darslarda mustaqil ta'lim ham tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi tinglovchida muayyan ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rejalashtirishdan iborat.

Mustaqil ishning tashkiliy shakllari ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat yoki prezentatsiya) tayyorlash, seminarga tayyorgarlik ko'rish, dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanishdan iborat.

2.3. Oliy ta'limda biznes va tadbirkorlik faoliyati mutaxassislarini

tayyorlashda iqtisodiy fanlarning tutgan o'rni

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki tadbirkorlik nafaqat iqtisodiyotning o'sish suratlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muxim bo'lgan bandlik va axoli daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiy, moliyaviy va kadrlar strategiyasini hamda unga bog'liq boshqaruv tuzilmalarini samarali ishlab chiqish har qanday korxonaning raqobat ustunliklarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli talabalarga "tadbirkorlik asoslari" fanini o'qitish bugungi kun uchun o'ta muhimdir. Ushbu fan orqali talabalar tadbirkorlikning mohiyati, uning milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishdagi o'rni va aholining bandlik muammosini

hal etishdagi roli tog'risida nazariy hamda amaliy professional bilimlarni egallaydilar.

Tadbirkorlik asoslari fanining vazifalariga ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy shart sharoitlarni, maqsadlarni, texnologiyalarni, bozor va raqobat muhitini tahlil qilishni, biznes faoliyatini yuritishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, korxona miqiyosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini va uni amaliyotda qo'llash mexanizmini ko'rib chiqish kabilar kiradi.

“Tadbirkorlik asoslari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni;
- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni;
- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish va tahlil etishni;
- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishni;
- kichik biznes va tadbirkorlikni bank, soliq, sug'urta, bojxona kabi tashkilotlar bilan munosabatlarini;
- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari haqida tassavvurga ega bo'lishi;
- mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini;
- kichik biznes va tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslarini hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini;
- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish, ularning moliyaviy faoliyati va kredit bilan ta'minlash shakllarini;
- kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining bank, soliq va audit bilan bo'ladigan aloqalarini, axborot bilan ta'minlash usullarini va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- yangi korxonani tashkil etish;
- uni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya olish tartibi;
- texnik-iqtisodiy asoslash va va biznes-reja ishlab chiqishni;

- kichik korxonani boshqarish;
- kichik korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish;
- kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarida marketing faoliyatini tashkil etishning uslubiy asoslari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni belgilovchi mezonlar haqida, kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash haqida, kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini soliqqa tortish, ulardan olinadigan soliq turlari va soliq imtiyozlari haqida, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha malakalarga ega bo'lishi kerak.

“Tadbirkorlik asoslari” tanlov fani hisoblanib, barcha ta'lim yo'nalishlariga 7-semestrda o'qitiladi. Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar “Statistika”, “Marketing”, “Moliya”, “Iqtisodiy-matematik usullar va modellar”, “Biznesga kirish”, “Menejment”, “Biznes asoslari”, “Investitsion tahlil” fanlaridan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Shu o'rinda, Buxoro Davlat Universiteti Turizm fakulteti Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishida tadbirkorlik va biznesga oid mavzular o'qitiladigan fanlarning 2015-2019 yillar oralig'ida o'qitilish amaliyoti haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Yo'nalish doirasida 2015-2016-o'quv yilida qabul qilingan talabalarga biznes va tadbirkorlik bilan bo'liq quyidagi iqtisodiy fanlar o'tilgan:

1-kursda:

- Iqtisodiyot nazariyasi – umumiy ikki semester davomida 196 soat;
- Sanoat iqtisodiyoti – 150 soat;

2-kursda:

- Mikroiqtisodiyot – 138soat;
- Statistika – umumiy ikki semester davomida 198 soat;
- Buxgalteriya hisobi – 138 soat;
- Menejment – 138 soat;

- Korxona iqtisodiyoti – 138 soat;
- Makroiqtisodiyot – 138 soat;
- Marketing – 138 soat;
- Pul, kredit va banklar – 138 soat;
- Iqtisodiy tahlil va audit – 139 soat;
- Real sektor korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyasi – 140 soat;

3- kursda:

- Iqtisodiy-matematik usullar va modellar – 126 soat;
- Moliya – 120 soat;
- Real sektor korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyasi – 100 soat;
- Milliy iqtisodiyot – 90 soat;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik- 20 soat;
- Moliya va soliqlar – 102 soat;
- Loyiha tahlili – 136 soat;
- Innovatsiya iqtisodiyoti – 138 soat;
- Mikroiqtisodiy tahlil – 156 soat;

4-kursda:

- Korxona tashqi iqtisodiy faoliyati – 96 soat;
- Biznesni baholash – 82 soat;
- Infratuzilma iqtisodiyoti – 226 soat.

Bu fanlar biznes va tadbirkorlik bilan bevosita bo'g'liq bo'lib e'tiborimizni tortgan jihat shundan iborat bo'ldiki, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" fani uchun 20 soat vaqt ajratilgan, aynan shu o'rinda ushbu fanning soatlar hajmini nomutaxassislik fanlari hisobiga bo'lsada oshirishni taklif qilamiz. Albatta ushbu yo'nalish bitiruvchilari barchasi ham tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan shug'ullanmasligi mumkin, ammo ularning bu boradagi bilim va ko'nikmalari kengroq bo'lishi muhim ahamiyatlidir.

III.BOB. “BIZNES VA TADBIRKORLIK” MAVZUSINI O’QITISH AMALIYOTIDA PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH

3.1. “Biznes va tadbirkorlik faoliyati” mavzusiga oid texnologik xarita

Buxoro iqtisodiyot va bank kollejida “Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari” o’quv fani (moduli)ning mashg’ulot turlari bo’yicha biznes va tadbirkorlik faoliyatiga oid mavzular texnologik xaritasi.

Mavzu:	Tadbirkorlik sifatlari va ko’nikmalari
---------------	--

Ma’ruza mashg’ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

Vaqt – 80 daqiqa	Talabalar soni: 30 nafar
<i>O’quv mashg’ulotining shakli va turi</i>	Nazariy . To’liq o’quv mashg’ulot.
<i>O’quv mashg’ulotining rejasi</i>	1. Biznesdagi tadbirkorlik xarakterining qirralari. 2. Tadbirkorlik ko’nikmalari 3. Tadbirkorlik qarorlarini qabul qilish va mas’uliyatni o’ziga olish ko’nikmasi
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i> Talabalarning iqtisodiy dunyoqarashini rivojlantirgan holda, tadbirkor, tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari, qaror qabul qilish ko’nikmlari haqida bilimlarni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <i>O’qituvchi:</i> - Tadbirkorlar va uning mohiyati turli iqtisodchilar fikrlari orqali tushuntiradi; - Tadbirkorning vazifalari va ular mohiyatini yoritadi; - Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari va ular mohiyatini izohlaydi.	<i>O’quv faoliyatining natijalari:</i> <i>O’quvchi:</i> - Tadbirkorlar kimlar ekanligi tushuntira oladi; - Tadbirkorlar vazifalarini aytib bera oladi. - Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari to’plamini sanab bera oladi, mohiyatini yoritadi;
<i>O’qitish usullari</i>	Suqrot texnikasi, tezkor savol, “Sinkveyn”, test, klaster
<i>O’quv faoliyatini tashkil etish shakllari</i>	Ommaviy. Individual.
<i>O’qitish vositalari:</i>	Matnli va sxemali tarqatmalar .
<i>O’qitish shart-sharoiti</i>	Mashg’ulotni o’tkazish uchun yetarlicha jihozlangan auditoriya.
<i>Qaytar aloqaning usul va vositalari</i>	O’g’zaki nazorat, Savol-javob.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 min.)	Tashkiliy qism: O'quvchilar mashg'ulotga tayyorgarligi va davomatni tekshiradi. Jahonda, yurtimizda yuz berayotgan voqea-hodisalar bilan tanishtiriladi.	Mashg'ulotga tayyorlanadilar.
2-bosqich. Asosiy qism. (70 min)	Tayanch bilimlarni faollashtirish: 1.Talabalarning bilimlarini tizimlashtirish uchun ularga tadbirkorlik tamoyillari, tadbirkorlikning jamiyat uchun ahamiyatini klasterda yoritish topshiriladi.(1-, 2 -topshiriqlar) Maqsad va vazifani belgilanishi: 2. Mashg'ulotning nomi, rejası, maqsad va kutilayotgan natija bilan tanishtiradi va yozib olishlarini aytadi. Yangi o'quv materialı bayoni: 4. Mavzuga oid tarqatmalarnı o'quvchılarga tarqatadi va ma'ruzani suqrot texnologiyasidan foydalanib talabalarga yetkazadi. a) Klassik iqtisodchi olimlarning tadbirkorga bergan ta'riflari va ularning mazmun-mohiyati tushuntiriladi . b) Tadbirkorning vazifalarini ko'rsatadi va izohlaydi. d) Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari sanab o'tiladi, ularning mohiyati hayotiy misollar bilan izohlab beradi . Yangi o'quv materialini mustahkamlash 5. a)Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi. b)Tadbirkor tushunchasining mazmun mohiyatini yanada to'laroq yoritishga oid "Sinkveyn" metodida topshiriq beriladi. d)Mavzuga oid test topshiriqlari tarqatiladi.	Topshiriqni bajaradilar. Izohlaydilar Mavzu nomi va rejasini yozib oladilar. Diqqat qiladilar Tarqatmadagi asosiy joylarni yozib oladi. Tinglaydilar Diqqat qiladilar Tinglaydilar, Qayd etadilar Savollarga javob beradilar, tinglaydilar. Bajaradilar, namoyish etadilar Bajaradilar

3- bosqich. Yakuniy bosqich. (5 min)	Mashg'ulot yakuni: 1. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi bahosini e'lon qiladi. Uyga vazifani berilishi: 2 . Uyga vazifa sifatida tadbirkorlik qarorini qabul qilish va mas'uliyatni o'ziga olish ko'nikmalarini o'qib kelish topshiriladi. Z.Y.Xudoyberdiyev “ Tadbirkorlik va biznes asoslari”, Toshkent -“Ilm-ziyo”, 2014 yil 40-46 betlat	Uyga vazifani yozib oladi.
---	--	----------------------------

Tayanch so'z va iboralar :


Tadbirkor xususiyatlari, yuqori mehnat qobiliyati; o'z kuchiga ishonish; o'z kelajagini qurish; foyda olishga yo'nalganlik; maqsadga erishishga intilish; tirishqoqlik; omadsizliklarni bartaraf qila olish; qaytma aloqadan foydalanish; tashabbuskorlik; eshitish istagi.

BAHOLASH MEZONI


Klaster metodida topshiriq bajarilganligini baholash	Mavzuni to'laroq yoritgani uchun	1-5 ball
Yangi mavzuga oid bilimlarni o'zlashtirilganligini baholash	Har bir savolga bergan to'g'ri javobi uchun	1-5 ball
1-Sinveyn metodida topshiriqning bajarilganligini baholash	Topshiriqni to'g'ri va tartibli bajargani uchun	1-5 ball
Nazorat test savollarining bajarilganligini baholash	Har bir to'g'ri bajarilgan test uchun	1-5 ball

Mavzu bo'yicha topshiriqlar va tarqatma materiallar:

1-Topshiriq. Chizmadagi bo'sh o'rinlarni to'ldiring.



2-topshiriq.Klasterni to'ldiring.



Tadbirkorga keltirilgan ta'riflar bo'yicha tarqatma materiallar:

TADBIRKORLAR, ULAR KIMLAR?




Jan Batist Sey tadbirkorni vositachi, ishlab chiqarish omillarining koordinatori, tajriba va bilim egasi, deb ta'riflaydi.

V.Zombramb esa, tadbirkorlikdagi tavakkalchilik faqat siyosat, savdodagina bo'lmay, boshqa sohalarga ham xos deb, ularni qaroqchi va bosqinchilar bilan tenglashtiradi.

Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta'riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, deb ta'kidlaydi. Tadbirkoming o'zi o'z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadiga o'zi xo'jayinlik qiladi.

R.Kantilon tadbirkorni foyda olishi cheklanmagan va bahosi aniq tovarlarni sotib oladiyu, lekin sotish bahosi noaniq bo'ladi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi, deb baholaydi.



Shuningdek, tadbirkorning shakllanishiga bir qator omillar ta'sir etadi — ma'lumoti, fe'l-atvori, oilaviy ta'sir, oldingi ishi va hayotiy tajribasi, o'z ishiga munosabati, rejalari va h.k. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida yuqori malakali tadbirkorlarga ega bo'lish uchun ma'lum ishlarni amalga oshirish kerak. Bu, avvalo, mutaxassislar tayyorlash, o'qitish va o'qish jarayonlarini shunga moslashtirish demakdir.

Tadbirkorlarga xos xususiyatlar keltirilgan kartichkalar:

<i>Yuqori mehnat qobiliyati:</i>
biznesni boshqarish yuqori harakatchanlikni va intiluvchanlikni talab qiladi. Bu — zarur bo'lganda, uzoq muddat davomida ishlay olish, tang vaziyatlarda ham juda qattiq ishlash va yaxshi uxlay olish imkoniyati bo'lmaganda ham mehnat qobiliyatini saqlay olish bilan bog'liq.
<i>O'z kuchiga ishonish:</i>
biznesda rivojlanish uchun insonlar o'z kuchlariga va o'zlari oldiga qo'ygan maqsadlarga erisha olish qobiliyatlari borligiga ishonishlari lozim. Bu, odatda, quyidagi ibora bilan ifodalanadi: «Agar siz biron nimaga juda intilsangiz va shu narsa ustida ishlashga tayyor bo'lsangiz, siz o'zingiz istagan narsaga, albatta, erishasiz».
<i>O'z kelajagini qurish:</i>
o'ziga ishonchli ish va daromad yaratish barcha tadbirkorlarning maqsadi bo'lib hisoblanadi; bu maqsadga erishishga bo'lgan ishonch ularning shaxsiy qobiliyatlariga asoslanadi. Bu — biznesdan olinayotgan daromadning miqdori muvofiq mezonga yetishi uchun bir necha yil o'tishi mumkinligini anglatadi
<i>Foyda olishga yo'nalganlik:</i>
pul ishlab topishga bo'lgan qiziqish insonning o'z korxonasini boshqara olishga qodirligini belgilovchi aniq ko'rsatkich hisoblanadi. Bu biznesning birinchi darajali ekanligini anglatadi. Pullar korxona doirasida ishlashi lozim, tadbirkorning bundagi vazifasi esa korxonada mavjud pullar yangi pullarni ishlab chiqarishi uchun ular qay tarzda qo'llanishi lozimligi yechimini topishdir.
<i>Maqsadlarga erishishga intilish:</i>
biznesda muvaffaqiyatga erishish aniq maqsadlarni qo'yish qobiliyatiga, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishishda qat'iylik bilan ishlashga bog'liq. Ushbu maqsadlarni qo'yish qobiliyati (inson nimaga o'rganishi lozimligi borasida) va ushbu maqsadlarga erishish yo'nalishida ishlash tadbirkor uchun poydevor hisoblanadi.

<i>Tirishqoqlik:</i>
ko'pgina insonlarga har qanday biznes vaqt- vaqti bilan qiyinchiliklar va ko'ngil qolishlarni olib keladi. Ishni qat'iy davom ettirish va muammoni uning yechimi topilgunga qadar, uni yengishdagi qat'iyat — muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari hisoblanadi.
<i>Omadsizliklarni bartaraf qila olish:</i>
har bir biznes, albatta, o'zida ko'ngil qolishi va omadsizliklarning suvosti toshlariga, lekin shu bilan birga, muvaffaqiyat cho'qqilariga ega. Omadsizliklarni bartaraf qila bilish uning manbayini aniqlashni, tegishli xulosalar chiqarishni va unda yangi imkoniyatlar kurtaklarini topishga harakat qilishni nazarda tutadi. Agar bunday xususiyat insonda yo'q bo'lsa, dastlabki omadsizliklarning o'ziyoq insonning o'zini o'zi band qilish harakatlariga chek qo'yadi
<i>Tashabbuskorlik:</i>
tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli biznesmenlar tashabbuskorlikni namoyon qilib, uni o'z qo'liga olish imkoniyatini qidirishgan holda o'zlarini shunday holatga qo'yishadiki, muvaffaqiyat uchun ham, mag'lubiyat uchun ham mas'ul bo'lishadi.
<i>Eshitish istagi</i>
muvaffaqiyatli rivojlanuvchi biznesmenlar guruhiga boshqalarga quloq solmaydigan va tashqi resurslardan foydalanmaydigan, o'z ichiga kirib ketgan individumlar guruhi kirmaydi. O'z kuchiga ortiqcha ishonish, zarur bo'lganda, bank xizmatlari, buxgalterlar va biznes maslahatchilar kabi malakali mutaxassislardan yordam so'rash qobiliyatini inkor etmaydi.
<i>Shaxsiy mezonlarni o'rnatish:</i>
faoliyat yuritish mezonlarini o'rnatish va ularga erishish bo'yicha keyingi ish olib borish — gullab-yashnovchi korxonaning yana bir ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu mezonlar daromad, sifat, sotuv hajmi yoki aylanma mablag' darajasini aniqlab berishi mumkin. Ko'pgina korxonalar ularning ishlari yildan yilga yaxshiroq borishiga intilishadi, ular joriy yil uchun o'rnatilgan mezonlarga nisbatan yuqoriroq mezonlarni o'rnatib, ularga erishadilar.

<i>Noaniqlik sharoitida ishlay bilish:</i>
tadbirkorlik yollanma mehnatga nisbatan ko'proq noaniqlik bilan bog'liq. Bu noaniqlik sotuv hajmi va aylanma mablag'ga tegishli bo'lishi, shu bilan birga, materiallarni ta'minlash, narx, bankning qo'llab-quvvatlashi kabi boshqa sohalarni ham qamrashi mumkin. Bunday noaniqlik sharoitida ruhiy charchashsiz ishlash qobiliyati juda muhim omil sanaladi
<i>Ishga butunlay berilib ishlash:</i>
korxonani yaratish va uni boshqarish faoliyatiga butunlay berilib ketish, shuningdek, hayot tarzi o'zgarishini talab qiladi. Biznes tadbirkor hayotida birinchi ustuvorlik bo'lishi lozim.
<i>Xarakterning kuchli tomonlariga tayanish:</i>
muvaffaqiyatga erishuvchi biznesmenlar ularda mavjud bo'lgan kuchli tomonlarga tayangan holda ish olib borishadi, bu tomonlar qo'l ishini sifatli bajara olish ko'nikmalari, sotishni bilish, yaxshi tashkil qilish qobiliyati, hujjatlar va boshqa yozma materiallarni chiroyli rasmiylashtira olish, aniq bir mahsulot yoki xizmatni bilish, savdo tizimidagi insonlarni bilish, shuningdek, aloqalarni o'rnatish olish va ularni qo'llay bilish qobiliyati bo'lishi mumkin.
<i>Ishonchlilik va to'g'rilik:</i>
haqiqatgo'ylik, ish munosabatlarida to'g'rilik va va'da qilingan ishni bajarishdagi ishonchlilik korxonani muvaffaqiyatli boshqarishning asosiy omillari bo'lib hisoblanadi.
<i>Tavakkalni o'z zimmasiga ola bilish</i>
O'lchangan yoki hisoblab chiqilgan tavakkalni o'z zimmasiga ola bilish qobiliyati ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Tavakkalga bunday yondashuv ushbu tavakkal butunlay yo'q bo'lishi uchun taxminiy narxlar va foydani aniqlash, muvaffaqiyatga erishish ehtimoli va o'z qobiliyatiga ishonishni ko'zda tutadi.

NAZORAT UCHUN TESTLAR:

1.O'zining ma'lum bir miqdordagi moliyaviy resurslarini tavakkal qilgan holda, bozorga yangi g'oya , mahsulot, xizmat va ishlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxs bu ...

- a.Investor
- b.Tadbirkor
- d.Korxona rahbari

2. XVIII asrning boshida iqtisodiy nazariyaga birinchi bo'lib tadbirkorlik tushunchasini qaysi iqtisodchi kiritgan?

- a. Adam Smit
- b. Jan Batist Sey
- d. R. Kantilon

3. Qaysi iqtisodchi, tadbirkorni vositachi, ishlab chiqarish omillarining koordinatori deb ataydi?

- a. Jan batist Sey
- b. Y. Shumpeter
- d. R. Kantilon

4. Tadbirkorni "Foyda olishi cheklanmagan va bahosi aniq tovarlarni sotib oladiyu, lekin sotish bahosi noaniq bo'ladi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi" deya ta'riflagan iqtisodchi nomi qayd etilgan qatorni belgilang?

- a. R. Kantilon
- b. Adam Smit
- d. V. Zombramb

?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Muvaffaqiyatli tadbirkor qanday shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim ?
2. Qaysi klassik iqtisodchilar tadbirkorni ta'riflaganlar ?
3. Tadbirkorning «Shaxsiy mezonlarni o'rnatish» xususiyatini tushuntiring ?
4. Tadbirkorning «Eshitish istagi» xususiyatini tushuntiring ?
5. Tadbirkorning «Noaniqlik sharoitida ishlay bilish» xususiyatini tushuntiring ?
6. Tadbirkorning «Qaytma aloqalardan foydalanish» xususiyatini tushuntiring ?

3.2. “Biznes va tadbirkorlik faoliyati” mavzusini o‘qitishda pedagogik metodlardan foydalanish

Bugungi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, interfaol metodlarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy bo‘g‘inga aylanadi. Mashg‘ulotlarni an’anaviy va interfaol metodlar orqali olib borishning farqli jihatlari quyidagi jadvalda keltirilgan (2.1- jadval).

2.1 - jadval

Mashg‘ulotlarni an’anaviy va interfaol metodlar orqali olib borishning farqli jihatlari


№	Asosiy tushunchalar	An’anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo‘llanish darajasi bo‘yicha	Barcha mavzular bo‘yicha ular uchun qulay bo‘lgan darsturlari shaklida qo‘llaniladi.	Barcha mavzular bo‘yicha interfaol darsning qulay bo‘lgan turlari shaklida qo‘llaniladi.
2	Darsning maqsadi bo‘yicha	Darsda bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo‘yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o‘rgatish.
3	O‘qituvchining vazifalari va ish usullari bo‘yicha	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat uchun topshiriqlar berish.	O‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlik bo‘yicha qo‘yilgan talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O‘quvchilar tayyorgarligi bo‘yicha talablar	Oldingi dars bo‘yicha vazifalarni bajarib kelish.	YAngi dars mavzusi bo‘yicha

			asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchining vazifalari va ish usullari bo'yicha	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarning fikri bilan taqqoslash va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti bo'yicha	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishlari, fikr almashishlari, mushohada qilishlari, o'z xulosalarini bayon qilishlari va himoya qilishlariga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga asosan o'tkaziladi.
9	O'quvchilarning faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol.	O'qituvchini ham, o'quvchilar ham har tomonlama faollashtiruvchi shakllar: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh va h.k.
10	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllan-tirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan


Mashg'ulotlar davomida interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'lishi hech kimga sir emas. Ular o'quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlari – ularning ta'lim va tarbiya,

rivojlantirish masalalarini yechishga yuqori yo‘nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo‘li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o‘zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat, ya’ni u pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Quyida keltirilgan piramidani tahlil qilar ekanmiz, o‘qitish samaradorligi faol usullardan foydalanilganda yana bir bora eng yuqori bo‘lishiga ishonch hosil qilamiz.



2.1-rasm. Ta’lim samaradorligi piramida

Shuningdek, “Tadbirkorlik asoslari” fanini o‘tish jarayonida ham tadbirkorlik tushunchasi, uning obyekti, subyekti, xususiyatlari, subyektlarining toifalarini, tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillarini va hokazolarni quydagi sxemalar va tahlillar, bahs munozaralar, keyslar asosida tushuntirish asosli deb hisoblaymiz.(2.2;2.3;2.4 – rasmlar)



2.2-rasm. Tadbirkorlik obyekti, subyekti, xususiyatlari, subyektlarining toifalarini

Manba: Fayzullayev N, Atayev J, Saidov D, Gulmonov M. Tadbirkorlik asoslari o'quv qo'llanmasi. 220-b.

	Tarmoqlar	Xodimlarning o'rtacha yillik soni
Mikrofirmalar	Ishlab chiqarish tarmoqlari	20 kishidan ko'p emas
	Xizmat ko'rsatish sohasi	10 kishidan ko'p emas
	Ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida	5 kishidan ko'p emas
Kichik korxonalar	Yengil va oziq ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish metallurgiya sanoati	100 kishidan ko'p emas
	Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'ini qayta ishlash, yoqilg'i energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash	50 kishidan ko'p emas
	Fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalari bundan mustasno), savdo umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalar.	25 kishidan ko'p emas

2.3 – rasm. Tadbirkorlik sub'yektlari toifalari


Manba: Fayzullayev N, Atayev J, Saidov D, Gulmonov M. Tadbirkorlik asoslari o'quv qo'llanmasi. 220-b

S – kuchli	W – zaif tomonlari
Boshlang'ich mablag' yo'qligi; Kredit olish murakkabligi; Xarakat erkinligi; Mahalliy shart shartlarga tez ko'nikadi	Yangi ish o'rinlari yaratadi; Foyda olishga intiladi; Faoliyat chegaralangan; Mayda biznesga nisbatan xayrixohlik
O – imkoniyatlar	T- tahdidlar
Yangi qonunlar bo'yicha faoliyat yuritish; Mahalliy shart shartlarga tez ko'nikadi; Bir necha kasbni qo'shib olib borish; Moslashuvchanlik va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati;	Naqd pul bilan naqdsiz pul o'rtasidagi munosabat; Kommunal xizmatlarning o'rta korrupsiyalashuvi; Korxonada ishlamasada soliq to'lovi Xokimiyat aralashuvi

2.4-rasm. Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha SWOT tahlil.

Manba: Bekmurodov A.Sh, Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J. Strategik marketing. O'quv qo'llanma. 2010.-161 b.

Shuningdek, tadbirkorlik va biznes atamalari farqini tushuntirish jarayonida esa quyidagi shaklda “Venn-diagrammasi”dan foydalanish mumkin.



2.5-rasm. Tadbirkorlik va biznes atamalari farqi “Venn-diagrammasi”da.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadbirkorlikka oid mavzularni o'qitish va yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlash, ularning malakasini oshirib borish jarayonida Keys- tahlil uslubining qo'llanishi ham juda samarali hisoblanib, bunda o'quvchilar vaziyatga ijobiy yondashadilar, o'z fikrlarini bildirib, o'z - o'zlarini tahlil etib, o'qituvchi

tomonidan baholanadilar. Albatta, keys- tahlil uslubi vaqt talab etuvchi usul hisoblanadi va kamroq bo'lsada, bilim – ko'nikmalar, atrof- muhitdan xabardor bo'lishni zarurat qilib qo'yadi.

Shu o'rinda dars o'tish jaroyonida samarali hisoblangan **Sinkveyn** metodini ham qo'lash o'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishda yuqori natijalarga olib keladi.

“Sinkveyn” (fransuzcha besh) besh qatordan iborat, o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha, hodisa, voqea, mavzu haqidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish murakkab g'oya , iqtisodiy tushunchalarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga, o'zlashtirishga yordam beradi. Quyida **Sinkveyndan** namuna keltirilgan:

Topshiriq. Tadbirkor tushunchasiga oid Sinkveyn tuzing.

“Sinkveyn” ni tuzish tartibi

Sinkveyn 5 qatordan iborat bo'lib, **birinchi qatorda** bir so'z bilan mavzu yoki muammo yoziladi. (odatda ot so'z turkumida oid so'z bilan)

Ikkinchi qatorda bir so'z bilan ifodalangan mavzu yoki muammo ikki so'z bilan tavsiflanadi. (Sifat so'z turkumiga oid 2 so'z bilan)

Uchinchi qatorda bir so'z bilan ifodalangan mavzu yoki muammo bo'yicha xatti harakatlar uch so'z bilan xarakterlanadi.

To'rtinchi qatorda bir so'z bilan ifodalangan mavzu yoki muammoga aloqadorlikni ko'rsatuvchi to'rt so'zdan iborat gap tuziladi

Beshinchi qatorda mavzuning mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonim yoki mohiyatining yangicha ifodasi yoziladi.

Masalan:

1-qator:

Tadbirkor

2-qator:

Tavakkalchi, tashabbuskor

3-qator:

ishlab chiqaradi, xizmat ko'rsatadi, tijorat qiladi

4-qator:

ishlab chiqarish omillarining koordinatori

5-qator:

Ishbilarmon

Interfaol mashg'ulotning manbalarda ko'rsatilgan jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur.
2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.
3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Tahlillarda aniq bo'ldiki DTS va dasturlarda talabalarda iqtisodiy tushunchalar bilan bir qatorda tadbirkorlikka doir tushunchalarni ham shakllantirish talablari o'z aksini topgan. Fanlar bo'yicha DTS va dasturlar asosida bilim va tushunchalarni shakllantirish usullari xilma-xil bo'lib, ulardan keng tarqalganlari:

- *Test usulida tekshirish*
- *Og'zaki so'rash.*
- *Yozma ishlar o'tkazish.*
- *Amaliy ishlarni bajarish.*
- *Vaziyatli o'yinlar o'tkazish.*
- *Sayohatlar uyushtirish.*

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, talabalarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish, tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarni turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan.

O'quvchilarida iqtisodiy va tadbirkorlik tushunchalarini shakllantirishda turli – tuman muammoli ta'lim usullaridan foydalanish ijobiy natijalarni beradi va iqtisodiy tarbiya masalalarining yechimida qo'l keladi. Iqtisodiy tayyorgarlik, iqtisodiy fikrga egalik, iqtisodiy bilimdonlik kabi hislatlarni shakllantirish, talabaning ob'ektiv va hissiy bilishlarini rivojlantirish uchun maxsus metodika, iqtisodiy topshiriqlar majmui, pedagogik ta'sir o'tkazish mexanizmlari orqali erishish mumkin. Darsliklarda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish

tamoyillari, bozor va uning turlari, ijtimoiy foydali va unumli mehnat, tadbirkorlik va raqobat to'g'risida bir qancha keng tushuncha berilgan. Biroq dastur talablarida qo'yilgan marketing va menejment faoliyatini bilish, bozor sharoitida oilalarning iqtisodiy aloqalarni taqqoslay olish, iste'mol tovarlari reklamasi tahlilini bilish, soliq tizimi haqida tasavvurga ega bo'lish, oila byudjetini shakillantirishda foyda, chiqim va ularning manbalarini bilish kabi ko'nikma va malakalarni tarkib toptiruvchi yaxlit iqtisodiy topshiriqlar mavjud emas. Zero, talabalarning iqtisodiy bilimlarini amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini kamol toptirish ko'p jihatdan taqdim qilinayotgan o'quv materialiga bog'liqligi bilan belgilanadi.

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlab, shuni xulosa qilamizki, mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqning farovon turmush darajasi, shuningdek, mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi bevosita biznes va tadbirkorlikning rivoji bilan bog'liqdir. Shu bois bugungi kunda biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish asosiy ustuvor vazifalarimizdan biriga aylangan.

Biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun avvalo ushbu shart - sharoitlar talab etiladi:

1. Mulkiy munosabatlarning uyg'unlashuvini boshqarish huquqini joriy etish.
2. Tadbirkorlarga o'z qobiliyatini to'la namoyon etishi uchun mahsulot assortimenti turlarini va ishlab chiqarish usulini tanlash erkinligi; hamkorlarni mustaqil tanlash; mablag'larni qonunga zid bo'lmagan sohalarga mustaqil sarflash erkinligi ta'minlash.
3. Bozorning ochiqligi, ya'ni tovarlar, sarmoyalar, ma'lumotlar, ishchi kuchi, xom ashyo harakati uchun sun'iy g'oyalarning yo'qligini ta'minlash.
4. Bozor infratuzilmasining mavjudligi.
5. Tadbirkorlik uchun huquqiy kafolatning mavjudligi, ya'ni tadbirkorlikni himoyalovchi qonunchilikning mavjudligini ta'minlash.
6. Yangi korxonalar uchun kadrlar tayyorlash, kredit olish, soliq to'lash, tabiiy boyliklardan foydalanish bo'yicha davlat tomonidan imtiyozlar berilishini ta'minlash.

Yurtimizda ham ushbu shart - sharoitlarni to'laqonli ta'minlash maqsadida turli yangi qonunlar qabul qilinmoqda. Ko'rsatkichlarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagi qisqa xulosalarga keldik, ya'ni Respublikmizda biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida quyidagi sharoitlar yaratilgan:

1. Mamlakatimizda hozirgi kunda 30 daqiqa ichida kichik biznes sub'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatlari yaratilgan. Shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faqat bir dona hujjat bilan ro'yxatdan o'tilsa, yuridik

shaxs sifatida kichik korxonani ro'yxatga olishda esa - ikki dona hujjat talab etiladi.

2. Kichik korxonalar kichik biznesni rivojlantirishda qulay shart-sharoitlar yaratishning muhim omili hisoblanadigan yagona soliq to'lovi stavkasi, deyarli barcha tarmoqda realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar hajmining 5% ni tashkil etadi. Shuningdek, kichik biznes sub'yektlari uchun 15% ni tashkil etuvchi yagona ijtimoiy to'lovning amaldagi stavkasi mavjud.

3. Xorijiy investitsiyasi ishtirokidagi yangi tashkil qilingan ishlab chiqarish korxonalariga 5 yil davomida soliq va majburiy to'lovlarning ular ro'yxatdan o'tgan kunidagi stavkasini qo'llash huquqi beriladi. 1 gektardan ko'proq yer maydoniga ega kichik korxonalar 2018-yildan yagona er solig'i to'lashi belgilandi.

4. Banklarning imtiyozli stavkalarda kreditlar ajratishi; tadbirkorlik faoliyatiga berilgan kredit mablag'larining 50% miqdoridagi kafillik va tijorat banklari kreditlari bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlarini qoplash uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining mavjudligi, biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini yaratmoqda²¹.

5. Tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga mas'ul institut tomonidan biznes manfaatlari himoyalangan. O'zbekistonda kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirish bekor qilindi, shuningdek birinchi marta sodir etilgan moliyaviy-xo'jalik huquqbuzarlik uchun tadbirkorlik sub'yektlari ma'muriy jarimalarning barcha turlaridan ozod etilgan²².

6. Respublikamizning barcha hududlarida "yagona darcha" tamoyili asosida tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatadigan markazlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi markazlar tashkil qilingan. Shuningdek, "biznes-inkubator"lar tashkil etilgan bo'lib, ular orqali tadbirkorlik faoliyatini endi

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdani Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risidagi Qarori.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

boshlovchi sub'yektlarga huquqiy va amaliy ko'mak berish, o'zlarining biznes rejalarini tuzish, shuningdek faoliyatlarida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

7. O'zbekiston bo'yicha tadbirkorlarga faoliyat olib boorish bo'yicha ko'plab o'quv kurslari, loyihalarini xususiylashtirilgan ob'yektlar bazasida amalga oshirish, nol stavkada ijara asosida yer maydonlarini 5 yil muddatga ajratish orqali yosh tadbirkorlarga klasterlar tashkil etilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonning barcha moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari bo'yicha yetakchi o'rinni egallay oladigan iqtisodiy hududlardan hisoblanuvchi Buxoro viloyatida ham tadbirkorlik faoliyati kundan kunga rivojlanib bormoqda. Jumladan, viloyatda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning umumiysoni 39876 mingga yetib, ularda 133620 mingta ish o'rni yaratildi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tarkibida ko'rsatilgan, viloyat miqyosida ro'yxatgaolingan kichik biznes sub'yektlari soni dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari olinganda, 13104 tani tashkil etgan bo'lib, ular orasida faoliyat ko'rsatayotganlari soni 12123 ta yoki 92,5 foizni tashkil etgan. Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'yektlari 1864 taga yetgan. Kichik biznes sub'yektlarining 53,3 foizi xizmat ko'rsatish sohasida tashkil etilgan. Viloyatda bundanda yuqori ko'rsatkichlarga erishish, maqsadida tadbirkorlar uchun Buxoro shahri va tumanlarda qator tadbirkorlik kurslari yo'lga qo'yilgan. Ushbu kurslarning maqsadi Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan hamda xususiylashtirilgan ob'yektlar va korxonalar negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlarning biznesni yuritish va biznes-rejalarni ishlab chiqish asoslari, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment, moliyaviy boshqaruv va boshqa zarur fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishdir.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchilarni biznes va tadbirkorlik bo'yicha o'qitishda Buxoro iqtisodiyot va bank kollejida «Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari» fanining o'tilishi bo'yicha yetarlicha xulosalarga ega bo'ldik.

«Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari» fanning maqsadi – bozor munosabatlari sharoitida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quvchilariga tadbirkorlik asoslari, bitiruvchilarni ishga joylashtirish tizimini rivojlantirish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish, ishga joylashtirishda va kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishda o'quvchilarning shaxsiy bilim, ko'nikma hamda malakasini shakllantirish, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi vakolatlarini bilishi, o'z kasbi va mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh xodim sifatida tayyorlash, muzokaralar olib borishni o'rgatish ko'nikmalarini o'rganishlari uchun amaliy bilimlar majmuasini berishdan iboratdir.


Bundan tashqari izlanishlarimizdan kelib chiqib shunday xulosaga keldikki, talim jarayonining samaradorligini 90 foiz amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim kafotlaydi.

Bitiruv malakaviy ishida yoritilgan masalalar yuzasidan quydagi taklif va tavsiyalar tizimini ishlab chiqdik:

- Talabalarning mamlakat, viloyat miqyosida nom qozongan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarini tashkil etish zarur. Ularning tajribalari ko'plab nazariy ma'lumotlarga nisbatan yaxshiroq ta'sir eta oladi, deb hisoblaymiz.
- Buxoro viloyat va tumanlar televideniya kanallari orqali ham Start-up lar, Biznes-treninglar namoyishini tashkil etishga e'tibor qaratish shart.
- Tadbirkorlarni o'qitishni on-line tarzda keng miqyosda tashkil etib, ularni imtihon qilib, sertifikat berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.
- BuxDUning iqtisodiyot va turizm fakulteti sherikchiligida tadbirkorlik korxonasi, jumladan, biror ishlab chiqarish korxonasi, hech bo'lmaganda xizmat ko'rsatish, masalan, oshxona, do'kon, hunarmandchilik sohasi korxonalarini tashkil etish zarur;
- Ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqani mustahkamlash zarur. Talabalarning ishlab chiqarish amaliyotlarini shu yerlarda tashkil etish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratilsa, yaxshi bo'lar edi. Jumladan, ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot rahbari etib tayinlanadigan xodimlarga qo'shimcha ish haqi belgilanishi ham korxonalar, ham talabalarning ma'suliyatini yanada oshirar edi;

➤ Universitet kasb ta'limi (iqtisodiyot) va iqtisodiyot mutaxassisliklari bo'yicha magistratura yo'nalishini tashkil etish kerak. Shuningdek ushbu yo'nalishlarda bakalavrda o'tilayotgan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" fani bo'yicha dars soatlarini ko'paytirish lozim.

Shu o'rinda takliflar qatorida ushbu loyihani ham taklif etmoqchimiz:



1-rasm. Yosh tadbirkorlar maktabida o'qitish bo'yicha bosqichlar.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yoshlar ittifoqi hududiy kengashlari qoshida yosh tadbirkorlar maktabi tashkil qilish. Tizimli tartibda har bir maktab va kollejda o'quvchilar uchun o'quv yili davomida oyiga ikki marta biznes va tadbirkorlik loyihalarini ishlab chiqishga va innovatsion g'oyalarni yaratishga undovchi muassasadagi yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan master klaslar tashkil etib boorish va yil yakunida muntazam qatnashuvchilar o'rtasida loyihalar tanlovini o'tkazish lozim. Albatta, kurslarda yil davomida ularga loyihalar tayyorlash va ularni ixcham bayon etish bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish ahamiyatlidir. Muassasada saralangan

loyihalar egalariga keyingi bosqichga yo'llanma berib, tuman(shahar) miqyosida saralangan loyihalarni ko'rib chiqish va imkoniyat darajasida ta'lim muassasalari soniga qarab, ya'ni tuman(shahar)da 30ta ta'lim muassasasi bo'lsa, 30ta o'quvchiga kvota hududiy kengashda tashkil etiladigan yosh tadbirkorlik maktablariga o'qishga qabul qilish lozim. Bu maktabda ma'lum muddat, deyslik bir oy davomida yozgi ta'tilda bo'sh vaqtlarda tadbirkorlik faoliyati va biznes bo'yicha turli kurslar, korxonalarga ekskursiyalar va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkil qilsak, va kurs bitiruvchilarining loyihalarini mukammal holatga keltirib ularning eng samaralilariga “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi tomonidan mablag' ajratilsa, tadbirkorlikni rivoji uchun yana bir mustahkam zamin yaratgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.: O'zbekiston. 2015.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi Qonuni. 1995- yil 21 dekabr.
3. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-328-son Qonuni –T.: 2.05.2012
4. O'zbekiston Respublikasining ”Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.–T. ”O'zbekiston” 1997- yil 29- avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonun.
6. O'zbekistonning yangi qonunlari 16 –son T, “Adolat”,2000 – yil 427 –b.
7. “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar tog'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4848-sonli Farmoni.05.10.2016 yil.
8. “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora tadbirlar tog'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5087- sonli Farmoni.19.06.2017 yil.
9. “Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi tashkil qilinishi tog'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2897-sonli Qarori 18.04.2017 yil.
10. “Tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.
11. “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi Qarori.

12. “Tadbirkorlar uchun o’quv kurslarini tashkil qilish va o’tkazish chora – tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 8.08.2017.

13. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlarga” bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. –T.: O’zbekiston, 2011. – 48 b.

14. O’zbekiston Respublikasi 1 - Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi. 18.01.2014 y.

15. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil yakunlari va 2017 yil iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo’nalishlari va ustuvor vazifalariga bag’ishlangan majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi 16.01. 2017 y.

16. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston mustaqilligining 26 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2017y

17. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai.T.: Sharq, 2001. - 227 b.

18. Ahmedov B, Aminov A. Amir Temur o’gitlari. - T.: Navruz, 2002. - 324 b.

19. Abdullayeva Sh. Z “Pul, kredit va banklar”.darslik –T.: “Iqtisod-Moliya, 2007-yil. 322 bet.

20. Акимов О. Ю. Малый и средний бизнес: Эволюция понятий, рыночная среда, проблемы развития. Изд: Финансы и статистика, 2011.

21. Djon Berdjies va Den Shtaynxoff “ Kichik biznesni boshqarish asoslari” - 2012 yil 30-b.

22. Do’stjanov T, Salayev S.Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari o’quv

- qo'llanma. – T.: Iqtosod va Moliya, 2006. – 243 b.
23. Egamberdiyev E, Xo'jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik o'quv qo'llanma - T.: Sharq, 2003 yil. – 36 b.
24. Gulimbetov.A .Tadbirkorlik asoslari ma'ruza matni – Nukus.: 2011. - 17b
25. Mavlonova R, To'rayeva O, Holiqberdiyev K. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2001. – 125 b.
26. Mak-Donald M. Sfera uslug. Polnoe poshagovoe rukovodstvo po marketingovomu planirovaniyu. -M.: Eksmo, 2009. 448 s.
27. Fayzullayev N, Atayev J, Saidov D, Gulmonov M. Tadbirkorlik asoslari o'quv qo'llanmasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. –3, 8, 12-18, 30 betlar.
28. Samadov A.N, Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
29. Suyunov O. J. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat// O'quv uslubiy qo'llanma.– Samarqand, 2011., 47b.
30. Suyunov O. J. Pedagogik texnologiyalar// ma'ruza matni.– Samarqand, 2010., 73b.
31. Sayidmurodov N. Yangi pedagogik texnologiyalar//O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2008., 144b.
32. Tojiboyeva D, Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi//O'quv qo'llanma. – Toshkent-2009., 123b.
33. G'ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: Sharq, 2002. 230 b.
34. Xudoyberdiyev Z.Xomitov.K, Murodov A va boshqalar. Tadbirkorlik va biznes asoslari. – T.: ilm – ziyo, 2014 . - 9,10, 12 ,15 betlar.
35. Xodiyev B.YU, Qosimova M.S, Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
36. Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Mehnat. 2010. 243 b
37. Под РЕД, В.Я. Горфинкеля и Т.Б. Полякова .Предпринимательство. Учебник.. – М.: «Юнити», 2011.-581 с.
38. Kantilon R, Nedeho K., Link A. The Entreppeneur. - H/Y. 2011. -51 p.

39. William M. Pride Robert J. Hughes. Bizness, - Izd.Cendade Learning, 2011-118 p.

40. Xasanova G.J. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish – davr talabi (Buxoro viloyati misolida). Jurnal«Интернаука» № 9 (91), часть 2. Mart, 2019 y. 34-b.

41. Xasanova G.J. Jurnal O'zbekistonning investitsiya siyosati (Buxoro viloyati misolida). «Интернаука» № 9 (91), часть 2. Mart, 2019 y. 37-b.

42. Choriyev M.B. BuxDu 3-bosqich talabasi. “O'quvchi-yoshlarda tadbirkorlik xususiyatlarini shakllantirish imkoniyatlari”. “Fermer xo'jaliklarida kooperatsiya va integratsiya munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari: muammo, tajribalar va innovatsion yechimlar”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. “Durdona” nashriyoti. 2018. 405-409 betlar.

43. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha “Harakatlar Strategiyasi”ni Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy – uslubiy risola. –T.:Ma'naviyat, 2017.

44. O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. 2018 – yil 8 yanvar.

45. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotnomasi, 2018-yil.

46. “Qulay ishbilarmonlik muhiti – tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish garovidir” O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vaziri Galina Saidovnaning «Голос Узбекистана» gazetasiga bergan intervyusi 2018 yil 21 fevral 23-soni.

47. “O'zbekistonda Yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari 1991-2017 yil statistikasi” 2018.

48. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ; Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami, - T.:Sharq nashriyot manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, - 2001,- 20b.

49. “O'zbekiston Raspublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi” axborot xizmati 2017 yil 25 – may

50. Buxoro viloyatidagi kasb hunar kollejlari o'tkaziladigan o'quv kurslarini tashkil qilish kalendar rejasi. 27.03.2018.

Internet saytlari

51. www.api.uz (O'zbekiston matbuot va axborot agentligi veb sayti).
52. www.xabar.uz (Yangiliklar).
53. www.saharschool.org (Sahar ijtimoiy online maktabi).
54. www.uza.uz (O'zbekiston Axborat Agentligi veb sayti).
55. www.gov.uz ("Yagona darcha" xizmati veb sayti).
56. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Iqtisodiyot vazilgi veb sayti).
57. www.kun.uz(Yangiliklar)
58. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari portali)
59. www.ziyonet.uz (Ta'lim portali)
60. www.stat.uz (Davlat Statistika Qo'mitasi veb sayti)
61. www.pedagogik-a.ru (Kasbiy pedogogika)